

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHDA
BAHOUDIN NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **O'razova Mehriniso**_____

ILMIY RAHBAR:

p.f.d.prof. Olimov Q.T._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

Termiz - 2013 y

REJA:

KIRISH.

1-BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

- 1.1.** Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida kasb va mehnatga yo'naltirish shart-sharoitlari.
- 1.2.** Naqshbandiya ta'limotidan boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida foydalanish imkoniyatlari .

2-BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHDA BAHOUDDIN NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

- 2.1.** 4-sinf mehnat ta'limi darslarida mehnat va kasbga yo'naltirish usullari.
- 2.2** Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda Naqshbandiya ta'limotidan foydalanish orqali o'quvchilarni mehnat va kasbga yo'naltirish shakllari.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
ILOVALAR

KIRISH.

Muammoning dolzarbligi. Mustaqil, huquqiy - demokratik, ma'naviy barkamol fuqarolar jamiyati qurish yo'lida borayotgan Vatanimizda uning porloq kelajagi davlatimizning ustivor siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buni biz kundalik faoliyatimizning barcha jabxalarida dildan his qilayotirmiz. Chunonchi mamlakatimiz uzluksiz ta'limining hamma bugunlari I.Karimovning «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan islohotlar hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi. Mazkur dasturiy xujjatlar nafaqat mamlakatimizda balki talay rivojlangan davlatlarning raxbarlar ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat arboblari tomonidan ham qo'llab quvvatlanmoqda. Buning boisi shundaki ushbu xujjatlar asosida barkamol shaxs tarbiyasidek olijanob maqsad yotadi. Barkamol yosh avalodni tarbiyalash, uning ongi tafakurini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi umrboqiy qadriyatlari, e'tiqodiy udum an'analari hal qiluvchi ahamiyatiga molikdir. Bular hozirgi kunda bizni ikki jihati bilan o'ziga jalb qiladi. Birinchidan, ular bir vaqtlar jahon sivilizatsiyasi, fanining rivojlanishiga to'rtki va poydevor bo'lgan bo'lsa, hozirgi mustaqillik sharoitiga yosh avlodni milliy g'urur ruhiy tarbiyalash muhim ma'naviy omil hisoblanadi.¹

Ikkinchidan biz XIX-XX asrning suronli alg'ov-dalg'ovida komunistik tuzum sharoitida o'zligimizni unutib butun bir avlod tarbiyasida milliy qiyofa, o'ziga xos axloq odobimizni anchayin unutib yuborganimizni ham bugungi kunda ularni e'zozlab o'rganishimizni taqazo qiladi. Istiqlol yo'lidan shaxdam odimlar bilan ilgarilab borayotgan Respublikamizda ma'naviy - axloqiy, ilmiy-irfoniy merosga sidqu sadoqat bilan qarayotganligiga butun jahon jamoatchiligi tan bermoqda. Buning ifodasi sifatida Imom Muhammad Ibn Ismoil Buxoriy, Al-Fargoniy, Burxoniddin Marg'iloniy, Al-Moturudiy, Jaloliddin

¹ Karimov I. Barkamol avlod-Uzbekiston tarakkiyotiningpoydevori.-Toshkent.1997

Manguberdi, Soxibqiron Amir Temur, Xo'ja Abdulhomid G'ijduvoniylar Bahouddin Naqshbandiy kabi ulug' shaxslarning tavallud kunlarini mamlakatimizda va jahonda keng nishonlashi, ularga bag'ishlab ziyoratgohlarni tiklash, hamda ma'naviy ilmiy merosini asarlarini nashr qilishga davlat miqyosida e'tibor berishi milliy merosimizni o'rganishga ulkan to'rtki bo'ldi.

Buning isboti sifatida A.Fitrat, A.Avloniy hamda ta'lim tarbiyani isloh qilishga ko'p kuch sarflagan jadidlar merosini o'rganishga bo'lgan ulkan qiziqishlar milliy merosimizni o'rganish, uning ilg'or g'oyalari ruhida yoshlarimizni tarbiyalashga keng yo'l ochilishi quvonarli xoldir.

Istiqlol yo'llarida asrlarga tatigulik taraqqiyot pillapoyalari bosib o'tildi. Jahon O'zbekistonga, yurtimiz esa olamga yuz tutdi, uning muborak tug'i Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqida xilpiramoqda. Shu asosda Dune Hamjamiyati qadimiy va boy ma'naviy - ma'rifiy xazinaga qadim shakllangan davlatchilik tarixiga ega bo'lgan bir davlatni o'zi uchun kashf etdi, oqibatda milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar manbai - mumtoz merosimizni o'rganish uchun ijtimoiy-siyosiy, pedagogik shart-sharoitlar yaratildi. Ammo e'tirof etish kerakki, tadqiqotchilar, olimlar mumtoz merosimizni o'rganishda jamoatchilik oldida hali katta qarzdordirlar. Prezident I.Karimovning Alisher Navoiy 560 yillik to'yiga bag'ishlab aytgan fikrlari butun o'tmish milliy merosimizni o'rganishga da'vat etadi. Chunonchi, I. Karimov «Agar bu zotni avliyo desak, u - avliyolarining avliyosi, mutafakkir desak-mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak - shoirlarning shoiri... Biz Navoiyni sevamiz, avrdoklaymiz...Lekin bobomizning ijodiy merosini o'rganishga kelganda u qadar maqtagulik jihatlarimiz ko'p emas. Navoiyni muhim hayotiy vazifalarini anglab yetish muammolariga yechim topishda o'zimizga madadkor bulishimiz kerak. U bitgan asarlarni insonni kamolga yetkazadigan, yaxshi - yomon kunlarda tatiydigan, kungilga xotirjamlik, zavq minus - shavq, kezi kelganda, sokinlik

beradigan jihatlari ko'p. Navoiyni ko'proq o'qish, ko'proq o'rganish teran anglash kerak.», - deyishi bejiz emas.²

Biz qurayotgan demokratik fuqarolik jamiyati o'z g'oyaviy asosi - milliy istiqlol mafkurasiga asoslanadi. Yosh avloddagi yangi mufkurani sindirishda ham milliy merosimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan g'oyat bebaxo va ulkan ma'naviy - madaniy, ilmiy - pedagogik merisini pedagogik jihatlarini umum milliy muammo hisoblanadi. Bu ulkan xazina har jihatdan ma'naviy - ma'rifiy, tarixi va pedagogik jihatdan yosh avlodda mustaqillika nisbattan ixlos, imom-e'tiqodni shakllantirishda vosita hisoblanadi. Milliy merosimizni yaxlit qadriyat sifatida har jihatdan tadqiq qilish dolzarb muammo va ilmiy tamoyil hisoblanmogi lozim. Bu mumtoz, badiiy adabiyot hamda irfoniy-iloxy merosimizga ham ta'lluqlidir. Muborak ona zaminimizni yettinchi asrlarda arablar tomonidan zabt etilib va islomiy e'tiqodni ular shuuriga amaliy ilmiy, ma'naviy madaniy hayotiga kuch bilan singdirilganligi inobatga olinsa, o'n to'rt asrlik taqdirimizning shu din ta'mirida tuganligini anglash qiyin emas. Shu davrlar mobaynida islomiy talablar antiqa udumlarimizda, turmush tarzimizga singib ketib, ularning g'oyaviy va axloqiy asosini belgilab kelmokda. Ayniqsa, islomiy g'oyalar og'zaki va yozma badiiy adabiyotda axloq, ta'lim tarbiyada hayotbaxsh g'oyalar sifatida singib kelgan, hamda xalqimiz iymon-e'tiqodini belgilagan.

«Inson e'tiqodsiz» imonsiz yashay olmaydi. Chunki komil inson va sobit e'tiqod jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bu borada islom dini katta ahamiyatga ega»,²- deydi. I.Karimov. Millatimiz madaniyati, ma'naviy -ma'rifiy va pedagogik merosini islom dinidan, uning mafkurasidan o'zib olib tadqiq hamda talqin qilish mumkin emas. «...Biz uz millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri xolda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy

² Karimov I. Istiklol va ma'naviyat-Toshkent:

tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki , ularsiz biz o'zligimizni yukotamiz», deb ta'kidlaydi I.Karimov.

Milliy istiqlol ma'naviyatimiz buyuk adibu fozillarimiz, adabiy-ilmiy, pedagogik merosimizni xaqqoniy ravishda ob'ektiv o'rganish imkonini bergan ekan, bundan to'g'ri foydalanmogimiz, usha ulug allomalar tafakkuri mevalarini bugungi mafkura va milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishga xizmat qildirmogimiz lozim. Mumtoz ma'rifiy fikrlar va atamalardagi pardalab aytilagan, botiniy fikrlarning bayon qilish usullari (texnologiyasi) orqali kishilar ongi, shuuriga yetkazishning o'ziga xos tomonlaridan hozirgi vaqtda foydalanish orqali yosh avlodga tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishning optimal yo'llarini belgilashimiz lozim buladi: «Negaki donishmand ajdodlarimiz bulik fikrlarni shu atamalar bagriga jo etish orqali uzlarini joxil xukmronlar va mutaasib shayxu zoxidlar xujumidan muxofaza qilishga muyassar bo'lganlar» Shu bilan birga ular o'z fikrlarini kishilarga yetkazish borasida sexrli, uta ta'sirli texnologiyalar ishlatganlar. Mumtoz merosimizni o'rganishdagi bizning kamtarona maqsadimiz ularning o'z g'oya, fikrdarbiyaviy ta'mirini o'ziga xos jihatlaridan foydalanib milliy mufkurani, jamiyatimiz axloqiy talablarini yoshlarimizga singdirish uchun foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Shu jihatdan olganda milliy merosimizni ma'naviyatimiz boshka jabxalardan farki shundaki, unda insoniy hislatlarning pokligi, axloqiy asosining mustaxkamligi Bilan kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishidir. Ulardagi yana bir muhim jihat insonning o'zi-o'zini doimo komillikka tomon-takomillashuviga intilishga undashidir. Chunki soglom fikr yuritmok va muammalar yechimini to'g'ri tokmok uchun inson komil shaxs bulmogi lozim. Insonning o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasi tasavvuf ta'limotidagi komil inson tushunchasi va Prezidentimiz asarlarida bayon etilgan barkamol avlod haqidagi moloxazalarga juda hammagangdir.Zero, komil inson g'oyasi -xalqimiznyng azaliy orzusi, ma'naviyatining uzviy bulagidir. Milliy istiqlol g'oyasini asosiy tushuncha va tamoyillarida « Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni

mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliy janob g'oya...» ekani ta'kidlanadi.³ Chunki inson o'z-o'zini rivojlantirmasdan, tinch-totuvlikni, farovonlikni barkarorlashtirmasdan turib barkamallikka erishib bulmaydi.

Insonni komillikka intilishi uning ichki nido, his tuygulari irodasi orqali hamda bu intilish boshkalarga xalakit berib, ularga nokulaylik tugdirish hisobidan emas, balki ular uchun har jihatdan kulaylik yaratish asosida amalga oshish lozim. Bunda yakka inson xohish-irodasi, yaxloqiy harakatlari boshkalar bilan uygunlashish hammoxangligida va muvofikligida yamalga oshirilishi kerak. Falsaviy ma'noda bu aloxidalikning (yakka inson, shaxsning) bir butunlik (insonlar va olim bilan) muvofiklashishi tarzida bulishi lozim.

Insonning o'z-o'zini kamol toptirish g'oyasi keng kamrovli tushuncha. Eng muhimi, o'z-o'zini rivojlantirish inson hayotining barcha boskichlarida va faoliyatining hamma soxasida tugilishdan tortib toki umrining oxirigacha, uning individdan barkamol shaxs bo'lib shakllanishida, hamda uning ta'til -tarbiyasining hamma jabxa va shakllarida ma'lum qonuniyatlar asosida amalga oshirilishi lozim. Insonning o'z-o'zini rivojlantirishi jamiyat hayotining hamma soxalarida belgilovchi bulishi muhim hisoblanadi. Bunda kishining o'z o'zini takomillashtirishi osonlashib, umumiy kamol ot muhiti yuzaga keladi.

Insonning o'z-o'zini rivojlantirishi umumjamiyat ishiga aylansa, kishilar bir-birlaridan ijobiy tasirlanib, o'z faoliyatlarida bunga aloxida etibor bilan karaydilar. Buning boisi shuki, insonlarning ijobiy ijtimoiy hislatlarni yegallashlari bir-birlariga uzaro tasir qiladi. Bu yesa, ibrat-namuna, taqlid qilish, ayrim xollarda ergashish tarzida amalga oshadi. Ayniqsa musulmon xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda jamoaviy yashash tarzi, jamoaviy fikr kuchli tasir qilish bilan farklanadi. Xalqda Qovun qovundan rang oladi, Birniki mingga, mingniki olamga degan xikmatli so'zlar mazmunida kishilarning bir-birlariga uzaro tasirlari kuchligi uz ifodasini topgan.

³ Karimov I. Barkamol avlod-Uzbekiston tarakkiyotiningpoydevori.-Toshkent.1997

Bozor munosabatlari sharoitida busiz tarakkietga erishib bulmaydi. Chunki «o'z-o'zini yaratib» va hayotda o'zini namoyon yetolmagan inson hayotda o'z o'rnini topolmaydi. Milliy mustaqillining bu talaba ijtimoiy buyurtma sifatida «Kadrlar tayorlash milliy dasturi»da yorlashda g'oyaviylik va mustaqil fikrlash tarbiyalash tarzida dolzarb qilib qo'yilgan .

Islomiy talimotda o'z-o'zini rivojlantirish asosan tashqi tasir, talim-tarbiya, ota-ona, o'qituvchi faolyati orqali emas, ko'proq, shaxsning o'z xohishi, ichki intilishi, ixlos va etikodi tarzida uning xatti-harakati, faoliyati, hamda axloqning ajralmas kismi sifatida qo'yilgan. Yani shaxsning o'z-o'zini kamol toptirishi uning shaxsiy, yani ichki atributi (ajralmas xususiyati poydevori) sifatida talqin qilinadi. Zero o'z-o'zini rivojlantirish shaxsning mohiyatidan kelib chiqib, undan ajralmasdir.

Inson bu holatda ongi, aqli bilan ish tutib o'zining ongliligi, taqvodorligi bilan ajralib turadi. Ong yesa, insonga olamning boshkaruv asosini va unga muvofik keluvchi xatti harakatini anglashga imkon beradi¹.

Ammo mustaqilik mafkurasi nuqtai nazariga, ko'ra inson passiv moslashuv tarzida faoliyat ko'rsatmay, sub'ekt sifatida faol bulishi lozim. Shuningdek, inson olamga xukumron bulishga da'vo kilmasligi yoki sub'ekt faolligini namoyon etish uchun «uzligini» yukotib, dunyoviy jarayonga «singib» ketmasligi kerak. Inson akl-zakovati, ongi bilan olam jaryonlarini bilishi va boshkarishning sub'ekt tarzida o'zini namoyon qilishi kerak. Buning oqibatida insonning o'z-o'zini rivojlantirishi borasida Yangi metodologik konsepsiya yaratilishi zarur. Bu konsepsiya o'zining dastlabki talqinini I.Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» tarixiy ma'ruzasida uz aksini topdi. Unda insonning o'z-o'zini rivojlantirishi, eng avvalo, uning mustaqil fikrlashiga boglikligi aloxida ta'kidlanadi. Zero mustaqil fikrlash-ijodiy fikrlash demakdir. Ijodiy fikrlashsiz ijodkorlik, uz -o'zini rivojlantirish kamol toptirish, yangilik yaratib bulmaydi. Yaratuvchanlik, ijodkorlik bulmagan joyda-farovonlik yuk, farovonliksiz - batx saodat yuk. Baxtsiz umr kechirish esa - bema'ni hayot kechirishdir. Yangilik ijod yaratish orqali inson uz mohiyatiny, «Men» ligini yaratadi, kashf etadi.

Pedagogika Fan sifatida insonning o'z-o'zini yaratish, namoyon qilish jarayonlarini qonuniyatlarini ochib berishi lozim.

Islom ta'limoti esa bu yo'lda unga muhim vosita rolini o'ynaydi.

Islomning muqaddas kitobi «Qur'on» da inson, uning hayoti axloqi masalasiga aloxida ahamiyat berilgan. Unda inson axloqi va hayotining pokligi, sofliigi komil iymoni musulmonlarning munosabatlari va yashash tarzlari bilan chambarchas bog'liklikda talqin qilinadi. Milliy me'rosimizni chukur mushoxada kilsak shu narsa ayon buladiki, yaxshilik qilish yashash musulmon uchun Ollox tomonidan qilinadigan muhim shart bo'lib, insonning butun hayoti mazmuni uning ajralmas kismi sifatida talqin qilishinianglab yetamiz.

Islomda inson - harakati uning iymoni, e'tiqodidan kelib chiqadi. Iymon mo'minlar axloqini tartibga soladi.

Mo'minlar uz xulq atroflarida iymon, e'tiqodga qarshi ish kilmasliklari kerak.

Imlomda iymon inson xulqini tartibga soluvchi muhim mezon hisoblanadi. Iymon so'zda ham, amalda ham bulmogi darkor.

Inson xulq atvorining darajasi iymonning mustaxkamligi Bilan belgilanadi.

Mustaqil davlatimiznng har tomonlama iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy va ma'navii rivojlanishi yoshlarning axloqiy, yuksak insoniy fazilatlariga bog'likdir. Bu sifatlar kishilarimizning xalq, Vatan yo'lida tinmay mehnat qilishlarii ta'minlaydi, hamda uz mehnati samarasidan g'ururlanish hislatlarini tarbiyalaydi.

Yoshlarda milliy g'urning shakllanishi milliy zaminda muhitda yanada tezlashadi. Shuning uchun milliy qadriyatlarini chukur bilmasdan milliy g'urur shakllanishi qiyin kechadi. Milliy qadriyatlarimiz milliy g'urni oziklantiruvchi bosh ildizdir. Yoshlarni halol-pok, haql, Vatan yo'lida fidoyilik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar ta'mirchan vosita hisoblanadi.

Shaxsga ta'sir qilishda So'z bilan birgalikda insoniy - axloqiy, hissiy ta'mir ko'rsatishning nozik usullaridan biri-tarixiy me'rosimizdan urinli foydalanganligining guvoxi bo'lamiz. Xalq og'zaki ijodi-ertak, doston,

matallarda qaxramonlar qiyofasini ochish uchun nozik poetik, nasriy usullardan xikoyat, rizoyat, she'r, g'azal, vaziyat-holatlardan foydalanganlar.

Shuning uchun bo'lsa kerak, pedagog olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan «Pedagogika fani konsepsiyasi» da «Sharq va Markaziy Osiyoda yashab faoliyat ko'rsatgan mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya soxasidagi ta'limotlarini o'rganish hamda bu qarashlarni maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari, oila, maxala va boshka jamoat tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish shaxsni har tomonlama rivojlantirish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi»,¹- deyiladi. Shu bilan birga mazkur ilmiy xujjatda pedagogik tadqiqotlarda o'zbek xalqining o'tmishda yaratgan boy ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy merosi, ta'lim-tarbiya soxasidagi tajribasi tarbiya nazariyasida oid qarashlari o'rganilmaganligi nazariy jihatdan asoslanmaganligi qayd qilinadi. Shulardan kelib chiqib, biz ilmiy tadqiqitimiz mavzusini « **O'quvchilarni mehnat va kasbga yo'naltirishda Bahouddin Naqshbandiya ta'limotidan foydalanish**» deb nomladik. Mazkur mavzu o'ta dolzarb bulishi bilan birga, o'ta murakkab va serqirra hamdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Naqshbandiya ta'limotidan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb - hunarga yo'naltirish usullarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning obgenti: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslari.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Naqshbandiya tariqatining insonni kasb – hunarga yo'naltirish to'g'risidagi fikrlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarini mavzu nuqtai nazaridan o'rganish.
- mumtoz merosimizning komil inson to'g'risidagi g'oyalarini taxlil qilish:
- Naqshbandiya tariqatining kasb – hunarga yo'naltirish bo'yicha g'oyalarining pedagogik mohiyatini ochish:

-Naqshbandiya tariqatidan ta'lim-tarbiyada foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chikish.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: mavzu darajasida so'rov, anketa, kuzatish usullaridan foydalandik:

-ta'lim muassasalarida murabiy – o'kituvchilar, talabalar bilan Naqshbandiya tariqatiga doyr suhbatlar qilish:

-Umumta'lim maktablarida - tarbiya ishlarida Naqshbandiya tariqatini o'rganish bo'yicha kuzatish ishlarini olib borish:

-tadqiqit natijalarini umumlashtirish va taxlil qilish.

Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati

Naqshbandiya ta'limotidagi kasb – hunar bilan bog'liq insonga ta'sir qilish ishxatlarni aniqlab ta'lim tarbiyada foydalanish uchun tavsiyalar berish.

Ximoyaga olib chiqiladigan holatlar.

-Naqshbandiya tariqatining milliy me'rosimizdagi, tavsiyalardagi o'rnini;

-uning insonni o'z-o'zini takomillashtirishdagi vazifalari;

-Naqshbandiya tariqotidagi kasb – hunar bilan bog'liq go'yalaridan ta'lim tarbiyada foydalanish bo'yicha tavsiyalarni;

Bitiruv malakaviy ish; Kirish uch, bob xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat;

I BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

1.1. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida kasb va mehnatga yo'naltirish shart-sharoitlari.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini mehnat ta'limi dars mashg'ulotlari va darsdan tashqari tadbirlarda kasb-hunarga yo'llash yoshlarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, umumta'lim fanlarining barchasida o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'llash amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi darslari ta'lim-tarbiyaning bu jihatini amalga oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning individual fazilat va sifatlarini shakllantirish va o'quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy va iqtisodiy tarbiya berish, pedagogik-psixologik tashhis ishlarini amalda tadbqiq etish quyidagi uch bosqichdan iborat:

1-bosqich. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, kasb-hunarga yo'llash ishlarini takomillashtirishdan.

2-bosqich. O'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, ehtiyojlariga qarab darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quvchilarni darsdan tashqari ishlarga tanlovlar asosida qabul qilish, individual va tabaqalashtirilgan metodlardan foydalanish.

3-bosqich. Shaxs sifatini tahlil qilish va tashhis qilish me'todikasini amalga oshirish.

Mehnat ta'limidan darsdan tashqari mashg'ulotlarning vazifalari quyidagicha:

- mehnat ta'limida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish va kengaytirish;
- unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb etish;
- o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqidagi tasavvurlarini kehgaytirish;


-o'quvchilarni xalq xo'jaligining zamonaviy ehtiyojlari asosida kasb-hunar tanlashga tayyorlash;

-mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llar ekanmiz, ularda kasb-hunarlar haqida to'g'ri tasavvurlar berishimiz kerak. O'quvchilarni qiziqish va kasbga bo'lgan moyilliklariga qarab rivojlantiruvchi shakllardan foydalanish o'smirlarda "Men kim bo'lishni xohlayman" degan savolga javoblarini onglarida shakllantirish kerak. Aksariyat o'quvchilarning kasb tanlashdagi asosiy xatoliklari u yoki bu kasb kishisiga munosabat kasbga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. O'quv fanining kasb bilan bir xil deb tushunilishi, kasbning tashqi jihati bilangina qiziqish, mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarga, ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning mavjudligi o'quvchilarning yana bir kamchiliklaridir. Ko'p hollarda o'quvchilar o'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera olmaydilar, u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy hususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaydilar, o'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash, tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash hollari uchraydi.

O'quvchilarga kasb so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib berish foydadan holi emas. Kasb-maxsus tayyorgarlik va tajriba natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir.

Kasbni quyidagi sxema asosida tushuntirishimiz mumkin:



1-rasm. Kasb tushunchasining asosiy tamoyillari

Dunyoda kasblar, hunarlar ko'p. Odamlar azaldan biror kasb-kor, halol va foydali ish bilan shug'ullanib, daromadlari evaziga hayotiy ehtiyojlarini qondirishga, yaxshi yashashga intiladilar. Shu tariqa oila ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, jamiyat rivojiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Qolaversa, har kim istagan kasbi bilan shug'ullanish huquqiga ega. Faqat u shug'ullanmoqchi bo'lgan faoliyat turi qonun bilan ta'qiqlanmagan bo'lsa bas.

Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi-bu umumta'lim maktablarining o'quvchi va bitiruvshilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunarni egallashga tayyorlash va yo'naltirishdir.

Kasb-hunar egallashning usullarini aniqlash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishning asosiy omillari, bu maktab direktori va maktab kasbga yo'naltiruvchi bilan birgalikda 1-9 sinflarda kasbga yo'naltirish bosqichlarini, mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni qanday yo'lga qo'yishidir. Umumta'lim maktabida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan bu masalani hal etishda sinf rahbari, fan o'qituvchilari ota-onalar, tashkilotlar bilan aloqada bo'ladilar. Ular kasbga doir turli xil tadbirlarni o'tkazadilar. Bu ishda ularga voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, yoshlar ishtimoiy harakati, xotin-qizlar yaqindan yordam beradilar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda tarbiya vositalari samardorligini oshirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- kasbga doir xonani jihozlash;
- kasbga doir tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;
- plakatlar, axborot texnologiyalari bilan tanishtirish;
- kasblar olami elektron axborot tizimi bilan ishlash;
- kasb-hunar tanlashning tegishli motivlarini shakllantirish.

Kasbiy faoliyat ilmiy yondashuvlar, xulosalardan foydalanib kasbiy rivojlanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir mehnat bosqichida mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixologik yangilanishlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida kasbiy tajriba, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar e'tirof etilgan kasbiy qobiliyat sintezining kompleksi, funksional tarzda faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlar ekan. Shaxsning kasbiy kamolotini individual-psixologik xususiyatlariga alohida urg'u beriladi.

Kasbiy faoliyatning bir qator bosqichlardan o'tish har bir insonning e'tiborga molik jihati hisoblanadi. Tadqiqotlarning aniqlanishicha yahshi mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi sifatlar bo'lishi, ya'ni o'zini kamol toptirishga intilish, muammoni qo'ya olishi, ishga qiziqishi bilan ichki tayyorgarlik, amaliy targ'ibotga ega bo'lishi psixologik individual asosga egalik muhimdir. Kasbiy tajribaning ahamiyatini e'tirof etgan holda F.S.Ismagilova bir qator ijobiy mulohazalarni ilgari so'rganligi holda K.K.Platonov tajribani bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida qaradi. Psihologik test pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasiga asoslanadi.

Aholini ratsional va samarali bandligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim tog'risida"gi Qonunlari, halqaro mehnat tashkilotining nizomlari, loyihalari va taqliflari, bir qator boshqa hujjatlar hamda rivojlangan mamlakatlarning shu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olingan.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari maktabgacha ta'lim muassasalarida kasblar olami, umumta'lim maktablarida kasbiy axborotlar, maslahat va tashhislar asosida amalga oshirilmoqda. Tizim to'liq shakllanganligiga qaramasdan kasbga yo'naltirish ishlarida bir qator muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanib qolmoqda. Jumladan:

1. Maktablarda mehnat va kasbga yo'naltirish ishlari.
2. Ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqa.
3. Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish xonalari va axborot hamda kadrlar ta'minoti.
4. litseylar va kasb-hunar kollejlariga o'quvchilarni qabul qilish tartibi.
5. Xalq ho'jaligi tarmoqlaridagi tarkibiy va kasbiy malaka o'zgarishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi yosh avlodning ongli ravishda qobiliyati, moyilligi, qiziqishi, jamiyatning kadriga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, mehnat qilish sohasini tanlashidan iborat.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan, mehnatni oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va shaxsni ishtimoiy va iqtisodiy himoyalashga bog'liq.

Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari: iqtisodiy rivojlanish, qiziqishlarni muvofiqlashtirish, psixologik-pedagogik tashhis qilish shaqli va ilmiy asoslanganligi, fuqarolarning kasb-hunarga yo'naltirishda teng huquqliligi, umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish xizmatlari majburiyligi va bepulligi, kasbiy tashhislarning obyektivligi va mahfiyligi, tafsiyaviy harakterda ekanligi, hodimlarning kasbiy axloq qoidalariga rioya qilishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirish obyekti: 1-9 sinf o'quvchilari, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi o'quvchilari, oily ta'lim, ish qobiliyati cheklanganlar, ishdan bo'shashni kutayotganlar, band bo'lmagan aholi guruhlari.

Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati va mazmuni bu-har bir individning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositslar tizimidir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir.

Kasbga yo'naltirish, asosan, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va aralash kasbiy moslashishdan iborat.

1. Kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
2. Kasb-hunarga yo'naltirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali kasbga yo'naltirish.
3. Kasb-hunar tizimini boshqarish.

Yuqorida ta’kidlangan ishlar tashkiliy-huquqiy ta’minot, kadrlar bilan ta’minlash, ilmiy-metodik va axborot ta’minoti, moliyalashtirish va moddiy-tehnika ta’minot asosida amalga oshiradi.

Hozirgi davrda juda ko’p yangi kasblar yuzaga kelmoqdaki, ular haqida hali o’quvchilarda ma’lumotlar yetarli bo’lmasligi mumkin. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun Internet tarmog’ida juda ko’plan saytlar mavjudligini eslatib o’tish darkor. Masalan, <http://www.vde.infobus.ru> va <http://www.naviobraz.ru> va boshqalar.

Misol sifatida Menejer – bozordagi talab va taqlifni o’rganadi. Biznes reja tuzadi, ma’lumotni yangilaydi, uni amalga oshirishni ishlab chiqaradi. Har xil tanlov va hodimlarning malakaviy o’sish jarayonini boshqaradi. Menejer qaror qabul qila oladigan bo’lishi kerak. Menejerda nutq, xotira, yuqori emotsional barqarorlik, tashkiliy qobiliyatlar, tavakkalchilik yuqori darajaga rivojlangan bo’lishi kerak. Menejer huquq, ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, boshqaruv sohalari bo’yicha malakali bo’lishi kerak. U mehnat qonunlari, soliqqa tortish, marketing, reklama, tijorat uchrashuvlarni olib borish, ishlab chiqarishning tashkil etilishini bilish kerak. Undan tashqari chet tillarni bilishi kerak.

Umumta’lim maktablari o’quvchilarini kasb tanlashga yo’naltirishda “Kasblar alifbosi”, “Kim bo’lsam ekan?”, “Kasblar olamiga sayohat”, “Men orzu qilgan kasb”, “Kasbiy moslashish”, “Kasbiy o’sish” va “Shaxsning o’zini-o’zi rivojlantirishi” kabi mavzular haqida televideniya ko’rsatuvlari uyushtirishning o’rni katta va psixologik tomonidan kuchlidir.

Umumta’lim maktablari o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirishda Prezident I.A.Karimovning 2006-yil 25-avgustdagi 451-sonli “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi farmonida ko’rsatib o’tilgan vazifalarni bajarishga qaratdim. Jumladan:

- kasb-hunar egallashga yo’llash orqali o’quvchilarda ma’naviyatni shakllantirish;
- tarixiy badiiy asarlar orqali milliy ma’naviyatimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari orqali o’quvchilarga tarbiya berish;

-zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirish orqali o'quvchilarga bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini olib borish;

-mehnat ta'limidan darsdan tashqari tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalash.

Bizga ma'lumki, kasb-hunar kollejlari tizimida quyidagi sakkizta bilim sohasi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlanadi:

1. Ta'lim.
2. Gumanitar fanlar va san'at.
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq.
4. Fan.
5. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari.
6. Qishloq va suv ho'jaligi.
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
8. Xizmatlar.

Qadimgi qo'lyozma asarlarda ham yoshlarning kasb-hunar egallashlari qay darajada muhim ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida kasb-hunar o'rganish nechog'li zarurligi haqida farzandlariga quyidagicha nasihat qiladi:

-“Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham tikanli butaga yanglig' na o'ziga, na o'zgaga foyda berur”. Umumta'lim maktabida o'qitiladigan bir qator o'quv fanlarida badiiy asarlarga ko'p murojaat qilinadi. Masalan, adabiyot fani darslarida yozuvchilar, shoirlarning hayoti va ijodi, ularning asarlari, ona tili va rus tili fanlari darslarida badiiy asarlardan parchalar, gaplar keltiriladi va ularni tahlil etish orqali fan asoslari o'rganiladi hamda shu asosda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda ham badiiy asarlardan foydalanish yaxshi natijalarga

olib kelishi mumkin. Shu mulohazalardan kelib chiqib, men bitiruv malakaviy ishimda mehnat ta'limi o'quv fanini o'qitishda bir qator o'zbek adiblarining asarlaridan foydalangan holda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ilmiy izlanish olib bordim.

Mustaqillikka etishganimizdan so'ng shahar va qishloqlarning qurilishiga katta e'tibor berila boshladi. Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasi bilan ko'p qavatli egizak uylar qurilishiga barham berildi. Xonadonlarning ichki xonalari o'zbek milliy mentalitetiga mos tushadigan loyihalar asosida qurola boshladi. Binolarning sharqona me'morchilik usulida qurila boshlagani o'z navbatida milliy qadriyatlarimizning tiklanishi, ma'naviyatning yuksalishiga olib kelmoqda.

I.2. Naqshbandiya ta'limotidan boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida foydalanish imkoniyatlari .

Jonajon yurtimizda ustoz shogird munosabatlari uzoq tarixga ega. Tarixmizda muayyan vaqt ilm va kasb-hunar o'rganish ustoz shogird tariqasida amalga oshirilgan. Buning oqibatida jahon fani va madaniyatiga tamal toshlar kungan buyuk shaxslar yetishib chiqqan. Bular Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Farobiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Abu Hamid G'azzoliy, va boshqalar. Bular o'nlab, yuzlab dunyoga mashhur shogirdlarni tarbiyalaganlar, Shu bilan birga ustoz shogird munosabatlarining g'oyaviy-axloqiy ishlarni ishlab chiqqanlar.

Tasavvuf ta'limotini yoki tariqqati bilan bir yo'nalishi o'rgatuvchi muhim 3 bosqichni bosib o'tish lozim. Bular:

- 1) Darvishlik
- 2) So'filik
- 3) Faqirlik.

Bunda darvishlik yo'li so'filik uchun ilk qadamdir. Ya'ni tasavvur ilmining maqomlarga yo'l olishdir. So'filik tasavvur ta'limotini bilish va uning qonunlariga amal qilish bilan o'zini shu ta'minot yo'lga yetishdir. Faqirlik yo'li esa mavjud dunyoni barcha sirlarini bilishdir.

Ma'lum tariqatni o'rganishni jazm qilgan kishi ustoz-pirga shogird bo'lishi lozim. Murod-murod ya'ni maqsadga intiluvchi odam; Murod esa-Axloq ta'limining vazmi. Muridning asosiy hislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, muridi komil etagini tutib, aytganlaricha so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz soliq manzilga yeta olmaydi. Chunki odam o'zini o'zi nazorat qilishi qiyin. Toki birov rahnamolik qilib yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi, Buni Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr" dostonida xud-xud va talabgor qushlar misolida yaxshi ko'rsatib berganlar. Hatto eng yaxshi niyatlar ham rahnamoli bo'lmasa, samara bo'lmay, qalbdagi zavqi shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muxabbat isyonga aylanishi hech gap emas.

Yo'lini topganu kishi to raxnamo ko'rsatmagan. (Bobur)

Shuni e'tiborga olib tajribada pirga yo'l berib iroda-ixtiyorini unga topshirganlar. Shu ma'noda tariqatni irodali ham deydilar. Ya'ni irodani shayx irodasiga muvozonatlashtirish, shayx irodasini uz irodasi deb bilish.

Ikkinchi tarafdin bu muridning irodasi mardligi ximmatni sinashni ham bildiradi, murid, murod, iroda so'zlari uzakdosh, zero dunyodan kechib, ilox yo'liga o'zini bagishlash ulug mardlikdir, muridga raxbarlik kiluvchi pirning o'zi achchig iztirob yo'li tariqat makomlarini eson-omon bosib utgan, kalbi Ilox ma'rifatiga limmo-lim orif inson bulishi kerak. Pir har jihatdan muridga urnak bulishi darkor, ham bilimning chukurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham kunglining pokligi, nafsini maxf etganligi va xokazolar bilan ajratib turishi sababli so'zim va harakati bilan, suhbatlari va nazari, tadbiri va ximoyasi bilan muridga ta'sir utkazmasligi lozim.

Koshifiyning shayxlik ruknlari keltirildi. Pir muridning shodligini ham, gamini ham baham ko'rgan, uni nasixat, tanbex va ilimli so'zlar, harakatlar bilan ruxlantirib quyidan yuqoriga karab vazifalar ham murakkablashib boravergan. Koshfiy yozadi: «Agar haqiqat pirlari kim deb so'rasalar, buning alomatlarlari quyidagilar deb javob bergil: tunlarni bedor o'tkazish yomonlar bilan o'tirmaslik, ilm o'rganish, giybat va yolgondan saklanish, odamlar xursandligini istash va shu hislatlarni o'z muridlarini yetkazish»

Bizning tariximizda bunday munavvar qalbli notiq insonlar kam bo'lmagan. Ular o'z muridlarini farzandlaridek yaxshi ko'rganlar. Pir hech qachon muridlariga ko'z olaytirmasligi, biron bir yo'sinda ishora qilmasligi, aksincha kishida biror mushkul ish tug'ilganda darrov yordam berishi mushkulni hal qilish kerak. Muridning mushkuli faqat jiddiy qiyinchilik emas solixlar buni hech qachon e'tiboga olmaganlar, mushkul deganda tasavvuf axli ma'naviy muammolar yuz beradigan talablar tug'iladigan savollarni anglaydilar. Pir ana shularga javob topib, muridni qanoatlantirishi shart. Agar qanoatlantirishga ko'zi yetmasa muridni boshqa o'zidan kuchliroq shaxsga tavsiya etadi. Shuni ham aytish kerakki solixlarni iste'dodi xilma-xil bo'lganiday pirlarning murabbiylik qobilyati ham

turlicha bo'lgan. Ba'zi shaxslarga muridga tarixiy odobini o'rgatganlar ya'ni uni taslim va itoatga keltirish manmanlik xirsu havo kabi tuyg'ulardan ham etish bilan shug'ullanganlar, ba'zi shaxslar muridga ruhiy karomati mujizalari bilan ta'sir etganlar, yana bir kim shaxslar shogirdlariga tasavvuf asoslarini o'rgatish nazariy bilimlar bilan qurollanganligiga e'tibor qilganlar.

Masalan xazrat Bahouddin Naqshbandning bir necha pirlari bo'lgan. Naqshbandning yozishicha, Xoja Xazrati Bahouddin valiylarni uch toifaga bo'ladilar. Ular: «muxallid, komil va muhammal. Muxallid eshitganicha amal qiladi. Komil o'z vujudidan chiqib ketmaydi, mukammalning tarbiyatisiz mukammal bo'lmaydi.»

Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida komil insonni shakllantirish g'oyasi yotadi. Komil inson, avvalo, aqlli, ilmi va ma'rifatli bo'lishi lozim. Uning ta'limotiga ko'ra insonni ilmi shariat, ilmi tariqat (ilm egallash yo'llari), ilmi ma'rifat va ilmi haqiqatni o'z ichiga olgan tasavvuf ta'limoti bilan qurollantirish lozim. Bu yo'l orqali insonlar mavjud dunyoning tilsimlarini o'rganishlari va bilishlari kerak. Xo'ja Bahouddin Naqshband bu ta'limotni o'rganuvchilarga piru ustoz bo'lib ta'lim berganlar. Piru ustoz Naqshband ularning dunyoqarashini kengaytirib, Valiy-avliyo darajasigacha aqlini rivojlantirganlar. Ularga ta'lim berish uslubiyotini ishlab chiqqanlar. «Bu toifa uch qismga bo'linadi: Muqallid, komil va mukammal.

Muqallid (taqlidchi) eshitganiga amal qiladi.

Komil o'z vujudidan chiqib ketolmaydi. Komil mukammalning tarbiyasi mukammal bo'lolmaydi. «Bizning ixtiyor qilganimiz «al-irodudu tarqu-l-irodudu fil-irodudu» degan so'zdir, murid (ya'ni, shogird) o'z xohishini tashlab, o'z muqtadosi (piri)ning xohishi ichiga butunlay ko'milib ketishi kerak» derdilar. «Ixtiyor bizda, agar xohlasak tolibga jazaba orqali ta'sir qilamiz, agar xohlasak suluk (turli xil yo'llar) orqali ta'sir qilamiz. Murshid (pir) bu — hoziq tabib (kabi) muridning holiga ya'ni, ma'naviy kamolotining ayni vaqtdagi holatiga — I.Tojiev muvofik, bo'lgan davo (tarbiyaviy ta'sir)ni qiladi.» «...bizning tariqatimiz (yo'limiz) anjumanda xilvat (xilvat dar anjuman), vatanda safar (safari dar vatan)

dir. Xilvatda shuhrat bor, shuhrat esa ofatdir. Jamiyatda xayriyat bo'ladi, jamiyat esa suhbatda bo'ladi. Agar bu yo'l toliblaridan bir guruhi bir-birovlari bilan hamsuhbat bo'lsalar, bu suhbatda xayru baraka ko'p bo'ladi... «Naqshband: suhbat»... zohir (tashqari)da xalq bila va botin (ko'ngil)da haq subhonahu va taolo bila...» bo'lishi kerak.

Murshid har kuni tolibning holidan xabardor bo'lishi, farosat yoki so'rab surishtirish bilan uning ahvolini bilib turishi zarur. «Murshid tolibning o'tgan, hozirgi va kelajak kabi uch xolidan boxabar bo'lishi kerak, shundagina uni tarbiya qila oladi.»

«Tolib amal qilishi zarur bo'lgan sharoitlardan biri shuki, u Haq taolo do'stlaridan bo'lgan bir do'st bilan hamsuhbat bo'ib, o'z holidan voqif bo'lishi zarur. Suhbat zamonini o'zining o'tmish zamoni bilan solishtirib ko'rsin, nuqsondan kambl sari ketayotganini o'zida mushohada qilsa, bu azizning suhbatida mulozamatda bo'lishni o'zi uchun farzi ayn hisoblasin.»

«Suhbatda sen ko'ngilga doimo yo'l topib bor, Yaxshilikka oshno bo'l, yomonlikka sen dushvor».

Yomonlar suhbatidan qochmasang sen do'stginam, Azizonning ruhi hech rozi bo'lmas, biru bor»

Ilm yo'li, «Tariqat yo'li odobdan iboratdir, har bir hol va har bir maqomning odoblari bor, kimkiya odobni ushlasa uni balog'at ahlining balog'atiga etkazadi. «Odob bu — xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. «Xizmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi — amalning qabuli, tug'yon esa odobning buzug'ligidir. Adabni saqlash—muhabbat samarasi, daraxti va urug'i hamdir.

Naqshband aytadilarki, «Agar adabdan ozginagina nuqsonga yo'l qo'ysang ham nimaiki qilsang beadablik bo'laveradi.» «Toliblarda yuz beradigan har qanday kamchilik va fikrlarni ular biladilar va yo'qotadilar.»

Sahobalar «...tolibdagi har bir zarra va qatrani ko'radilar va haqiqat yuzasidan bu holni ularga ko'rsatadilar va shuvdoq qoldirmaydilar.»

«Ko'r ketar ekan bilmay istiqbolda choh,

Uni ogoh etmasang sendadir ulug' gunoh.»

«Har vaqt diqqatingni bo'lmagil zinhor,

Nigohing hamisha bo'lsin intizor.»

«Vuqufi zamoniy bu yo'lda yuruvchi uchun shunday narsaki, tolib doimo o'z ahvolidan xabardor bo'lishi har bir zamonda o'zining holi va sifati qanday, shukr paytimi, uzr paytimi, buni bilishi kerak.»

«Orif kishilar topa oladigan va boshqalar topa olmaydigan yo'l uch qismga — muroqaba, mushohada va musohabaga bo'linadi. Muroqaba—yaratuvchiga doimiy nazar qilish bilan odamlarni unutishdir... Mushohada — g'aybiy holatlarning ko'ngilga kiri- shidir. Zamon o'tuvchidir, to'xtab turolmaydi... Qabz (siqilish) holatida jalol sifatini mushohada qilamiz, bast (shodlnk) ho- latida jalol sifatini mushohada qilamiz...

Musohaba — o'tgan har bir soatimizni hisoblash va tekshi- rishdir. Utgan har bir soatimiz... huzur bilan o'tdimi yoki nuq- sonmi? Agar hammasi nuqson bilan o'tgan bo'lsa, qaytamiz va amalni avval boshdan boshlaymiz... amal qilmoq kerak, qilinma- gani haqida fikrlash: o'zni nuqsonli bilish va amalni boshidan boshlash.»

«Solih (ya'ni, tolibi ilm) balog'at (kamol)ga etgandan keyin dil va til o'rtasida farqi qolmaydi, ya'ni tashqaridagi mashg'ullik botin (ichki) amallariga to'siq bo'lolmaydi. Botin amaliga zohir mashg'ulotidan hijob (parda) yuzlanmaydi. «Shunday qilib, u «... xalq huzurida rioya qilinadigan adabga xilvatda ham rioya qilish lozim» ligiga tushunib etadi.

«Kimning ikki kuni bir xil bo'lsa, bas, u aldangan, kimniki bugunidan ertasi yomon bo'lsa, bas u mal'undir, kimki ziyodalikda

bo'lmasa, bas, u nuqsonda, kimki nuqsonda bo'lsa, bas unga o'lim yaxshidir.»

«Ular (ya'ni ustozlar) o'zlarining vujudlarini poklash bilan o'zgalarning vujudlarini poklashni istaydilar.»

«Kim meni yaxshi ko'rsa, men uni qiynab ko'raman», ya'ni unga nisbatan talabni oshiraman. «Murid (shogird)ning e'tiqodi va ishonchini oshishi uchun zuhurga keltiradi va bu tufayli murid yanada qattiqroq harakat qiladi.»

«Agar do'st aybiga boqsak, do'stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas». Bu yo'lning kjiini ko'tarishga haqiqiy do'stlar kerak...» suv ariqqa do'stlar madadi bilan keladi, avval o'rtoq to- pish, so'ng yo'lga chiqish kerak.» «Har kim o'zgalarni xohlasa, o'zi- ni xohladi, kimki o'zini xohlabdi, bilsinki, o'zini xohlayapti.» «Agar o'zingdan kechsang, doimo ayshu shodlikdasan.» «Takabburlik shamoli boshida bo'lsa-da, esishi Uning (Ollohning) dami (esi- shi) dandir.» «Bizning kibrimiz Uning (ya'ni Ollohning) Kib- riyoligidan», dedi Hazrat.

«...har kim o'zida yo'q, narsa bilan so'z aytsa, Haq subhonahu uni hech qachon o'sha narsaga etkazmaydi.»

«Darveshlik nima Darveshlik tash (ya'ni, tashqi qiyofasi) dan berang va ich (ma'naviy qiyofasi)dan bejang bo'lishdir.»

«Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq emas, biroq o'z odatiga xilof ovoz chiqarmaydi.»

«Hoyu havas ahllari tutgan ishlar asosining barchasida jaholat (adashuv)dan iboratdir. Ishlarda niyatni to'g'ri qilish eng muhim narsadir.»

«Biz shunday suvratdamizki,

Hech kimdan ranjimaymiz va hech kimni ranjitmaymiz.»

«Aqlli kishilar bugungi ishni ertaga qo'yadigan kishilardan yuz o'giradilar.»

«...barcha zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) amallar, so'z va fe'l sen uchun hijob (parda) dir, t bu yo'lda yuruvchi bulardan kechib o'tmasa, haqiqatga etolmaydi.»

«Kimki qo'l-oyog'ini to'g'ri ishlatsa, Allox. taolo uning nasibasini to'g'ri qilib beradi.»

«Dil ba yoru, dast bakor» — «Dilimda xudo, qo'lim mehnatda.»

«Kimki Haq subhonahu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning hiyla-nayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi.»

«Ilohiy inoyatlar bilan biz qilgan amal va chekkan riyozatlar- ni tortishga sizlarning toqatingiz etmaydi. Sizlarga chora shuki, beixtiyor bo'linglar, rizo talabi yo'lida qalblarni ehtiyot qilinglar.»

«Har bir tavfiq egasi o'z nafsiga qarshi turmog'i kerak va bu har qancha oz bo'lsa ham ko'p bilsin hamda bu tavfiqning shukri- ni qilsin.»

«Alloh jalla jaloluhuga suyangani haqiqiy murshid inoyati or- qali axloqni hamda yoqimsiz fe'llarni o'zgartirish bilan nafs- ga qarshi kurashishdir.»

«Menda na gilam bor, na farrosh,
Na turk g'ulomiyu, na sangtarosh.
Tunda men yoturman it kabi xor-zor,
Ingrayman, dumimga qo'yganimcha bosh.»

«Na boylik bor, na boylardan kamimiz bor,
Io'qchilik kasratidan na g'amimiz bor.
Elkamizni janda yopgan, xona go'riston,
Ajal kelib etib qazo kelsa, na motamimiz bor.»

Bahouddin Naqshband ta'limotining birligidon E.E.Bertels yozadiki, u o'z umrini o'z xohishi bilan faqirlik va yo'qsillikda o'tkazgan. U o'z qo'li kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini doimo etim-esirlarga, beva-bechoralarga in'om etgan. «Sen shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'uda bo'l», deydi Bahouddin Naqshband.

«Olamda halolni oshab yashadim.
Barchani ushbuga chorlab yashadim.
Shul sabab oftobday porlab yashadim,
Bag'rini tuzlagan Bahouddinman.»⁴

Tariqat yo'lini ixtiyor qilgan muridga eng avvalo istak, iroda o'zining ichki va tashqi intilishlarini shariatni o'rgatishga pining ko'rsatmalarini bajarishga

⁴ Hoshimov K., Safo Ochil "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", Toshkent, "O'qituvchi", 1995 yil.

bo'ysundira olishi shart. Xazrati Bahouddin Naqshband aytardilar «Iroda, taslim va ixtiyorsizlik bu ulug' ishdir». Bizning ixtiyor qilganimiz «al-irodati tarxul-irodati fil-irodati» degan so'zdir, murid o'z xohishini boshlab, o'z muqtadasining xohishi ichiga butunlay ko'milib ketishi kerak. Ya'ni o'z xohishlaridan voz kechib pir ko'rsatmalariga so'zsiz rioya qilish lozim.

Xazrati Bahouddin Naqshband pir sifatida muridlarni tariqatga tayyorlashda turli usul va vositalardan foydalanganlar. Bular suhbat, valiilik ya'ni valiilik karomati ko'rsatish jazava. Bularni tanlash muridning holatiga va tariqatni egallash darajasiga bog'liq xolda bo'lgan. Muridni avval suhbat orqali sinab, undagi istak va qobiliyatni aniqlab, shu asosda ma'qul yo'l tanlangan. "Tolib avvalo bir muddat bizning dustlarimiz bilan hamsuhbat bulishi zarur, toki unda bizning suhbatimizga nisbatan qobiliyat paydo bo'lsin" -deb quyidagi sheriylar baytni takrorlardilar: Nabin vaqti suftan mardiy xannon, Ba shogirdan dixad durri xatarnoq.

Mazmuni: Qurmay-sanmi, durga shkal beruchi durni teshayotgan paytda, xatarnoq (nozik) durni o'z shogirdiga beradi.

"Ixtiyor bizda, agar xoxlasak tolibga jazava orqali ta'sir qilamiz. Murshid (pir) bu nozik tabib muridning xoliga muvafaq bo'lgan davoni qiladi".

Tariqatni o'rganishda toliblar o'zaro bir-birlari va gurux tarzida suhbat qilishlari ko'proq foydali bo'lishini alohida takidlaganlar. "Agar bu yo'l

toliblaridan bir guruhi bir birlari bilan hamsuhbat bo'lsalar bu suhbatda xayru baraka ko'p bo'ladi. Umid borni, bu ishga doimo amal qilinsa oxiri haqiqiy iymon bilan yakunlanadi"

Bahouddin Balogardan aytar edil ar: "Xaqning xalqi bilan emas xaqning o'zi bilan mushvarat (yonma-yon) bo'lmok kerak". Tariqatni chuqur o'rganishdan oldin musulmonchilik asoslari Quro'ni, hadis payg'ambar sunnatlarini o'rganishi shart.

Aytar edilar "Musulmonlik bu- iloji boricha hukmlarga bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoq bo'lib,

bularning hammasi nuri safi va raxmat hamda viloyat darajasiga yetishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va makomlariga mana shu sifat parvarishi orqali yetiladi" deb ta'kidlaganlar piri murshid.

Aytar edilar: "Kishi o'zining nafsiga tuxmat qilishi kerak. Kimki Xan subxonaxu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning xiyla-nayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi. Bu yo'ldan yuruvchilarda o'zgalarning gunoxini ham o'zlaridan deb bilish xollari ko'p bo'ladi."

Musulmonlik ishlarini bilish muridni tariqatini o'rganishida dastlabki bosqich bo'lib, uni tashkiliy jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatdan tayyorlaydi. Shulardan so'ng tasavvur ta'limotini o'rganishga o'zini tariqatga bag'ishlashi foydali bo'ladi. Tariqatni o'rganish esa ustoz pirsiz bo'lmaydi.

Xoja Yusuf Hamadoniy "Odobu tariqat" risolasida yozadilar: Kishi bir shayx bilan bevosita suhbatdan maxrum bo'lgan murid (Haq yo'l tolibi) har kuni avliyoullox toifasi (Xudoning do'stlari) so'zlaridan sakkiz varaq (o'n olti bet) mutolaa etishi kerak. Bu so'zlar tasirida muridning kungli jonlanadi. Shunga binoan murid (solix) o'z yo'lini va yo'nalishini quyidagi to'rt asosga ko'ra belgilashi, bino qilishi lozim:

Birinchi asos nafs riyozati

Ikkinchi asos - luqmaning va hirqaning halol bulishi

Uchinchi asos - mushohada bo'lib, u shayton dunyo va yomonlikni buyuruvchi nafs singari botoniy dushmanlarga qarshi mushohada kilmok-kurashmokdir.

To'rtinchi asos - zikr. Shuni bilginki, ibodat, taqvo, riyozat va mushohada singari bir ishga yo'llar bo'lsada, ammo Janobi Haqni zikr qilmaguncha haqiqat yo'li ochilmaydi.

Haqiqiy zikr qalb bilan bo'ladi. Qalb zikriga muyassar bo'lgan soliq farz sunnatlaridan tashqari qolgan vaqtini tariqatga xos zikrdan boshqa narsa bilan o'tkazmasligi kerak.

Abdulxolik Gijduvoniy "Maxomati Yusuf Xodadoniy" risolasining muqaddimasida yozadilarki bu iqromu ulug' nasibaga va bu saodatga haqiqiy bir

soliqqa erishmasdan, shafqatli bir xojaning etagini tutmasdan erishish mumkin emas.

Muhammad Bahouddin Naqshband xazratlari qobiliyatli muridlarni tarbiyalashga ko'p vaqtlarini sarf qilardilar. Har bir tariqatni o'z shayxidan Payg'ambar s.a.v.ga yetib boradigan silsilasi bor. Mazkur silsilaga kiruvchi shayxlar ushbu tariqat asoslarini Rasullox s.a.v.dan nakl qilishga xizmat qilganlar.

"Silsilaning shayxlari avvalo shariat ilmlarini yaxshi o'zlashtirib olib, keyin tariqatga yuzlanganlari ko'rinadi. Bundan ilmsiz kishi, xususan, shariatni puxta o'rganib olim bo'lmagan kishilar tariqat shayxi bo'lishi mumkin emasligi chiqadi".

Qur'onni yod olmoqchi bo'lgan talabaga tiloviy hukmlarini, uni ado etishni yaxshi biluvchi ustoz kerak. Agar oddiy kishini o'ziga qo'yib qo'yilsa, tilovatni to'g'ri o'rganib olishi mumkin emas. Balki xato o'rganishi, ma'nolarini bo'zib yuborishi ehtimoli kuchli. Bu haqiqat barcha diniy va dunyoviy ilmlarga bog'lik. Turli kasbu hunar va san'atlarni o'rganish uchun mutaxassis ustoz lozim. Agar kishiga ilm o'rgatadigan shayx bo'lmasa, u adashadi va shaytonning yo'liga yuradi hamda oxiri oqibat halokatga uchraydi.

Xoja Orif yozadilarki, inson kasb-hunar o'rganishi kasb-xunar maqomiga erishmoq uchun tolib bo'lmok zarur. Shu toliblik jarayonida say'-harakat va tavajjuk, ko'plab riyozat chekish va jiddu jaxd ila yomon illatlarni yo'qotish oqibatida pokizalik va nek hislatlar hosil bo'lgay va darajaba-daraja tarakkiy etib, kamolot martabasi va tarifu visolga erishgay»

Shu bilan birga Xoja Orif yozadilarki, Islomda har bir narsa birinchisi-har toatu va ibodatinim aylarsiz aning ilmidan voqif buling! Ikkinchisi har ilmniki o'rganibsiz unga amal ixlos bila ado etgaysiz.

Ustoz-shogird, ya'ni tariqatni o'rgangan kishining yosh o'ki o'rganuvchiga o'rgatishi eng muhim udum hisoblanadi. Buni albatta ancha ijobiy tomoni bor. Ko'pchilik xollarda islom ta'limotini o'rganishda yakka-indivudial ta'lim oluvchining o'zi say'i-harakati hal qiluvchi hisoblanadi, tariqatni o'rganishda soliq ma'lum darajaga erishgan piri-murshiddan ta'lim olishi ijobiy hisoblanadi. Buning ibratli tomoni shundaki, tariqat ma'lum yo'l-suluh sifatida yaxshi bir ta'limot hisoblansada uning asosiy vazifasi

muridga axloqiy ta'sir qilish, eng avvalo uni shaxsiy axloqiy jihatdan uni suyauxni o'rganishga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bunda pir murshid yoki muridga eng avvalo shaxsiy sifatlari, yurish-turishi, hayot tarzi, axloqi bilan ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi. Ikkinchidan, tariqatni o'rganish, uni axloq-odobi darajasida muridga singdirishga amaliy va nazariy yordam beradi. Shu yo'l orqali muridni xato kamchilik, adashishdan asrab tariqat mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va unga amal qilish yo'l-yuriqlarini egallashni osonlashtiradi.

Odob bu xulqni chiroyli qilish so'zni va fe'lni soz qilish. Har bir kasb-xizmat o'z odobiga ega. Xazrati Xoja ta'kidlab «Adabul xilvatu aoza tiddu alomatuxu qabulul amal va - l - ubuduyatu mulozamatul adabi va - t - tug'yonusadul adabu» ya'ni ma'nosi xizmat odobi ulug' batdan yaxshiroq uning belgisi qabulu tug'yon esa odobning buzuqligidir. Har bir xizmatda tariqatda ham ma'lum axloqiy koidalariga rioya qilish kasbga bo'lgan ixlos va sadoqat bo'lishi bilan shaxsni kamolotga erishishini ta'kidlab, unga izzat ikrom keltiradi va eng muhim kasbini ulug'laydi. Tolibi ilim tariqat odoblariga rioya qilib ham kamolotni ta'kidlasa ta'limotiga nisbatan boshqalarning izzat hurmatini oshirishga olib keladi.

Kasbni ulug'lab inson ulug'lanadi, izzat hurmat topadi, Kasbni egallash orqali inson obro' e'tibori ortib ulug'lik va ulug'vorlikka erishadi. Xazrat dedidar «Adabni saqlash muxabbat samarasi, ya'ni muxabbat darajani muxabbat ulug'i hamdir».

Kasb odobiga rioya qilmaslik ham kasbni obro'sini pasaytiradi va tolib ilmini kishilar e'tiboridan qolishiga olib keladi.

Tariqatni o'rganishda adabning vazifasi tolibda intizom va u orqali ixlos e'tiqodni shakllantirish va tariqat toliblariga to'la rioya qilish unga har qanday ruhiy va jismoniy holatga ham xiyonat qilmaslik mas'uliyatini tarbiyalashdir. Shu asosda Xazrati Bahouddin Naqshband murid qadamba-qadam tariqatga, pirga nisbatan odobni saqlab, payg'amabar va Haq ta'ologa nisbatan odob qilib, darajama-daraja payg'ambar sunnatini egallab Haq subxonaxu va ta'ologa yetishadilar. Bu fikrlarni Xazrat quyidagicha bayon qilganlar. «Bir odob bor u haq subxonoxu va ta'ologa nisbatan bo'ladi, bir odob u Payg'ambar Solloloxu Alayhi Vassallamga nisbatan bo'ladi ya'ni bir odob bor u mushoxidlarga nisbatan bo'ladi. Haq subxonu va ta'ologa nisbatan bo'ladigan odob shundaki uning farzinlarini zoxirda va botinda to'liq bandalik bila nado qilinadi va undan

boshqa harqanday narsadan yuz o'giriladi. Payg'ambar Solloloxu Alayxi Vassallamga nisbatan bo'lgan odob shundaki o'z «Fatobiuni» (menga itoat qilinglar) makomiga to'lik olib kiradi va birga shu holatga nisatan xurmat qoidasini to'lik saqlaydi, mushoxidning hal qiluvchi mushkullari Xazrati Haq subxonoxu irodasi orqali u bilan ekanini anglashi va har kim hamda har bir narsa uning izzat ostonasiga bosh qo'yganini bilishi kerak shayx (pir)ga nisbatan odobning kotib va lavozimining sababi shuki ular (shayxlar) sunnatga to'liq amal qilish orqali Haq subxonoxu va ta'olaga yetishganlar».

Xazrat Bahouddin Naqshband ta'limoti ma'lum pedagogik tizim va irson ruhiy olami mohiyatiga asoslangan ta'limot, desak xato bo'lmaydi Chunki uning inson imkoniyatlariga mos kelishi xavoiy, nazariy o'ylab chiqarilgan emas, balki buyuk piri murshidning o'z shaxsiy tajribasidan 40 yildan ko'proq eksperimental sinovdan o'tgandir.

II.BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHDA BAHOUDIN NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

II.1. 4-sinf mehnat ta'limi darslarida mehnat va kasbga yo'naltirish usullari.

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligi rivojlantirish faoliyati o'zining shaqli, mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Shunday bo'lsa ham keyingi o'n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

3-4 sinflarda o'quvchilar texnik ijodkorlik bilan bog'liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg'otish, ana shu yoshlar guruhidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli jihozlarni konstruksiyalash bilan bog'liq faol texnik o'yinlar, musoboqalar va konkurslarga qatnashtirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajribachilik ishining eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sohalaridagi texnik havaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash.

O'quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi ijodkorliklariga yo'naltirish.

O'quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog'onasida o'qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o'quvchini to'liqlantirgan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag'ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo'yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o'qituvchi ana shu o'quvchilarni to'garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar to'garaklarida Rahbar bilan o'quvchilarning didaktik o'zaro hamkorligi o'yin faoliyati shaqlida tashkil qilinadi. Konstruktorlik to'garaklarida o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy vazifalarni (masalan, texnika to'garaklarida

texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda maktablar va maktabdan tashqari muassasalar faoliyatida o'quvchilar texnik ijodkorligi to'garaklarining quyidagi turlari vujudga kelgan:

1. Tayyorlov texnika to'garaklari (kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun). Ularda o'quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog'oz, plastmassa, metall va boshqa materiallarga ishlov berish bo'yicha olgan boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quvchilar texnik o'yinchoqlar, mashina va mexanizmlarning sodda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar, maktab hamda uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun tayyorlov texnika to'garaklari orasida ko'pincha boshlang'ich texnik modellashtirish to'garaklari, elektrlashtirilgan o'yinchoqlar to'garaklari, transport texnikasini boshlang'ich modellashtirish to'garaklari tashkil qilinmoqda.

2. Predmet (fan-texnika) to'garaklari: fizika, fizika-texnika, ximiya, ximiya-texnologiya, agroximiya, astronomiya va boshqa to'garaklar. Bunday to'garaklar o'quvchilarning maktab o'quv rejasidagi turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini mustaqamlash, ta'lim xonalarini to'ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinadi.

3. Sport-texnika to'garaklari maktablarda, ko'proq maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko'rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo'l modelchiligi, radio boshqarish, suv-motor va boshqa to'garaklar.

Mazkur to'garaklarda o'quvchilar modellarni va ishlaydigan texnikani konstruksiyalash va tayyorlash bilan shug'ullanadilar, keyin esa ana shu modellar bilan sportning texnik turlari bo'yicha modelchi-sportchilarning musoboqalarida qatnashadilar.

O'quvchilar sport-texnika to'garaklarida tegishli texnika tarmo-g'ining tarixi, uning xalq xo'jaligida va mamlakatimiz mudofaasida qo'llanishgai bilan, Vatanimizdagi havo yo'llari transportlari samolyotlar, avtomobillar, suv yo'llari transporti, radio apparatlari va boshqa texnikalar bo'yicha buyuk konstruktorlar texnik tafakkurining xususiyatlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi to'garaklardan tashqari metallchilar, duradgor konstruktorlar, texnolog ixtirochilar, shuningdek, elektrotexnika, radiotexnika, elektron avtomatika, texnika, kibernetika, rabotexnika, kichik o'lchamli qishloq xo'jalik texnikasini konstruksiyalash, texnikani jihozlash va o'lchov texnikasi klublari keng tarqalgan.

O'quvchilarning ana shu to'garaklardagi faoliyati, eng avvalo, texnikani o'rganish bilan, o'rganilgan mashinalarda ishlashni osonlashtiradigan turli ish moslamalarini yaratish, mashinalardagi har xil tizimlarning ishlash prinsipi va to'zilishini tushunishga yordam beradigan ko'rsatmali qo'llanmalarni tayyorlash bilan bog'liqdir.

Maktab texnika to'garaklari tarmog'ining rivojlanishi va shu to'garaklarning yuksak saviyada ishlashi ko'pincha maktablarda texnika yoki sport texnika, o'quvchilar ilmiy jamiyatlarining klublari tashkil topishiga olib keladi, o'quvchilarning mehnat birlashmalari ishlarning mexanizatsiyalashuvi darajasini oshiradi.

Yangi texnik yechimlarni izlash metodlarini o'zlashtirishga juda qiziqadigan o'quvchilar ko'pincha mahalliy texnik ijodkorlik markaz-laridagi mashg'ulotlarga qatnashadilar, maktabda ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining maktab tashkiloti, maktab konstruktorlik uyushmalari kabi uyushmalarining faoliyati rivoj topadi. Bu birlashmalar pedagoglar va muhandis texniklar jamoatchiligining amaliy yordami bilan o'quvchilarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va qavaskorligini rivojlantirish uchun yaxshi hamda yuksak ijodkorlikiy saviyadagi sharoitni yarata oladi. Ularning ishlab chiqarish, ilmiy muassasalar va tashkilotlar, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining mahalla bilan mustaqkam aloqasini ta'minlaydi.

Bunday ishlarni tashkil qilish va o'tkazishda mahalliy uyushmalarda hamda yosh texniklar markazlarida shug'ullanayotgan to'garak qatnashchilari o'qituvchiga katta yordam berishlari mumkin. Olimlar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, o'quvchilarning ilmiy-texnik konferensiyalari, texnik ijodkorlik ko'rgazmalari, olimpiada va konkurslar, sayoxatlar, ilmiy-ommabop ma'ruzalar, yosh ixtirochilarning anjumanlari, har yilgi fan, texnika va ishlab chiqarish haftaliklari mamlakatimizdagi maktablar va maktabdan tashqari muassasalarda an'anaviy tus olgan, o'quvchilarni texnik ijodkorlikka ko'proq jalb etadigan ommaviy tadbirlarning shakllaridir.

Ma'lumki, dars o'quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning asosiy shaqlidir. Dars qanchalik jozibali, uning shaqli va mazmuni qanchalik yorqin bo'lsa, o'quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko'proq savollar tug'iladi. Predmet bo'yicha dars mazmunli o'tilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni ham sifatli o'tish samaradorligini oshiradi.

Tajribali mehnat ta'limi o'qituvchilarining fikricha, o'quvchining qiziqishlari yo'nalishida, uning o'qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o'smirlar ijtimoiy tarbiyasining natijalari yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchidagi qiziqish va qobiliyatni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish, o'quvchiga o'z ishini, o'zining kelajakdagi ijodkorlikini topishda yordam berish mumkin.

To'garakdagi ishlar o'quvchilarga biror ijodkorlikdagi mehnatning mazmunini, ommaviy ishchi ijodkorliklarining eng qiziqarli jihatlarini bilib olishlarida yordam berishi zarur. Shuning uchun maktabdagi to'garaklarning faoliyatini belgilashda mahalliy ishlab chiqarishning yo'nalishini hisobga olish kerak.

Rahbar to'garak jamoasini uyushtirish bilan birga to'garakda ijodiy ishlab chiqiladigan va tayyorlanadigan ob'ektlarni belgilaydi, to'garak ishini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatlarini, shuningdek, bo'lajak texnik qurilmaning murakkab detallarini tayyorlashda hamda maslaqatchilarni jalb qilishda amaliy

yordam ko'rsatish uchun baza, korxonaning imkoniyatlaridan foydalanish miqyosini aniqlaydi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi boshqaradigan to'garakdagi o'quvchilar mehnatining ob'ektlarini belgilashda asosiy diqqat – e'tibor maktab ustaxonalarini ayrim texnik qurilmalar, texnologik uskunalar, mehnat birlashmalaridagi mehnatning kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashga, maktab ustaxonalaridagi mavjud uskunalarini ta'mirlash va takomillashtirishda, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishida yordam beradigan har xil ko'rsatmali qo'llanmalarni, elektrlashtirilgan stendlarni, bilishga doir o'yinlarni ishlab chiqishga haratiladi.

O'quvchilarning to'garakdagi ish uchun ob'ektlar tanlashdan oldin o'quvchilarning o'zlarini tayyorlash, ularda kishilar uchun keraqli buyumlarni ishlab chiqish hamda yasashga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish kerak.

Ishning muvaffaqiyati o'qituvchi, to'garak rahbari to'garak qat-nashchilari orasida vazifalarning taqsimlanishini qanchalik aniq tashkil etgani, ularning individual va yosh xususiyatlarini, maktab ustaxonalari sharoitida tavsiya qilingan ishni bajarishga amaliy tayyorlik darajasini hisobga olgani bilan ham belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish jarayonida asosan mahalliy kablar bilan tanishtirish ko'zda tutiladi. Davlat ta'lim standartida ham boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqligi ko'zda tutilgan. Jumladan 5-ta ijodkorlik turi bo'yicha ijodkorliklar bilan tanishtirishni ko'zda tutiladi bular inson-tabiati, inson-texnika, inson-inson, inson-belgili to'zilishi, inson-badiiy obraz shuni nazarda tutish kerakki ijodkorliklar bilan tanishtirishda uning qiyin tomonlarini aytmaslik maqsadga muvofiq. Dasturda ko'rsatilgan amaliy ishlarni har doim ham maktab to'garaklari faoliyati jarayonida bajarib bo'lmaydi. Bu juda ko'p sabablarga, jumladan, ustaxonalarining moddiy texnik bazasiga, o'qituvchining amaliy tayyorgarligiga ham bog'liqdir. O'qituvchi dasturda ko'rsatilgan vaqtdan mavzular bo'yicha ajratilgan vaqtlar nisbatini aniqlash uchun mo'ljallanish sifatida foydalanishi mumkin.

Dasturlar maktab to'garagi mashg'ulotlarini haftada bir marta to'garak ishining birinchi yili ikki akademik soatdan va ikkinchi yili uch akademik soatdan o'tkazishni mo'ljallab to'zilgan.

To'garak rahbariga ish haqi to'lash bilan bog'liq masalalar qoidaga muvofiq maktab ma'muriyati va baza korxonaning kasaba uyushmasi tomonidan hal qilinadi. Ba'zan maktablardagi texnika to'garaklari yosh texniklar markazining filiali sifatida tashkil etiladi. Bunday hollarda to'garak rahbarining ish haqi maktab va tegishli yosh texniklar markazi jamoalarining hamkorlik to'g'risidagi shartnomasi asosida belgilanadi.

To'garak faoliyati doimo to'garak rahbari tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan ish rejasi bo'yicha amalga oshiriladi.

To'garak ishining rejasi to'garakning namunaviy dasturi yoki to'garak rahbari o'qituvchining o'zi tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan dastur asosida to'zilishi mumkin.

Ko'pincha to'garakning ish rejasi mashg'ulotlar boshlanishidan ancha oldin, rahbar hali to'garak qatnashchilari ro'yxatini aniq bilmaydigan paytda to'ziladi va tasdiqlanadi. Aslida esa to'garakning yillik ish rejasi loyihasinigina oldindan tayyorlash, keyin to'garak qatnashchilarini ana shu loyiqa bilan tanishtirish, uni o'zil-kesil ma'qullashni esa navbatdagi mashg'ulotlarda, ya'ni o'quvchilar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va o'zlarini nimalar ko'proq qiziqtirishini bilib olganlaridan so'ng amalga oshirish to'g'riroqdir.

O'quvchilarning faol ishtirokida to'zilgan reja eng to'g'ri bo'ladi, chunki bunday reja har bir o'quvchining ishiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'lga ega bo'lishi, xalq xo'ja-ligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradordigini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy

fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning sama-radorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng za-monaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni ijodkorlikiy tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muqitdan himoya qilish muhimdir.

Ijodkorlikiy tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tash-kiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jihatdan ijodkorlikiy-tarbiyaviy ishlarni o'smirlar orasida kuchaytirish talab etiladi. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o'qituvchilar, sinf Rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarni ijodkorlikga yo'naltirish asosida hayotga tayyorlashdek muhim vazifa turadi.

O'quvchilarda ijodkorlikiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. O'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Ijodkorlikni tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va oshkoralikni himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o'quvchilar Respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o'ziningdek qabul qiladigan bo'lsin. Ularning og'irligini o'z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalaridagi tub o'zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunsin.

Iqtisodiy tarbiyaning umumiy maqsadi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijodkor shaxsni hayotiy faoliyat vositasidan unumli foydalangan holda uning iqtisodiy savodxonligini, iqtisodiy mada-niyatlilik darajasini oshirishdan iborat.

Shunga muvofiq shaxsning kamol topishi faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning eng oddiy, shuningdek, ancha asosli iqtisodiy bilimlar, hayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarni kengaytirishlari hamda mustaqamlashlari uchun ularga keng sharoit yaratib berishlarini taqozo etadi. Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'lim tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi barcha davlat boshharuv tashkilotlari qatnashishi ko'zda tutiladi.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning yagona tizimi, umumta'lim tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsata olishda uzluksiz ta'lim, turli faoliyatlardan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy munosabatlarga jalb etish kabi ilmiy harashlar tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishni vaqt bilan qat'iy chegaralash mumkin emas. Uning uzluksizligini ta'minlovchi, iqtisodga yo'naltirilgan ta'lim-

tarbiya tadbirlari tizimidagi markaziy siymo - Jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning kamolotga intilishi ijodkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muhit, ehtiyoj ijodkor shaxsni yaratuvchi kuchdir. Eng ilg'or fikrlar, mafkura, eng takomillashgan tafakkur faoliyat vositasida moddiylashganda, seziladigan narsa tusiga aylangandagina iqtisodiy tarbiyaning omiliga aylanadi. Iqtisodiy tarbiya bo'yicha darsdan tashqari ishlar o'quv jarayoni bilan tarkiban va mantiqan uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak. To'garak faoliyati, iqtisodiy bilim anjumanlari va baqs-munozaralari o'quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, umumiy tarbiyaviy jarayonga mos kelishi zarur.

Bunda iqtisodiy tarbiyaning o'quvchilar ijodkorlikiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatish umumiy mazmunining ajralmas, uzviy hismi ekanligini yodda tutish kerak. Belgilangan maqsadga qaratilgan tushuntirish ishlarini oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida, maktabdan tashqari ta'lim maskanlarida, mahallalarda, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish institutlari va boshqa muassasalarda olib borish, turli tadbirlar o'tkazish ham muhim o'rin tutadi.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o'quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha to'ziladi. Mashg'ulot shaqli, maqsadi, mazmuni, pedagogik o'ziga xosligi, shuningdek, ish rejalari fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko'ra farqlanishi lozim.

O'quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo'naltirish foydalidir. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning, O'zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish kerak. Bu borada asosiy manba sifatida badiiy estetik qadriyatlar, qadimiy san'at turlarini tanlash zarur. Milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniqsa, Sharq miniatyura san'ati, qaykaltoroshlik, hunarmandchilik, musiqa va san'atning boshqa turlari (teatr, sirk va q.k.) xalqning o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi; yashash joyi, qiyinishi, mehnat qurollari va hakovzolar muhim o'rin tutadi, milliy san'at tarixiga, etnografiyasiga, me'morchiligiga va an'anaviy san'at turlariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutafakkirlarining dono fikr-muloqazalaridan, shuningdek, Jahon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish ma'qul bo'ladi.

Bu aniqlangan bilimlar tizimi, estetik tuyg'ular, qiziqishlarni singdirish, o'rganish, fikrlash, mulohaza etish, munosabat, qimmatli yo'nalish, harashlar, baholar, g'oyalar, faoliyat (ijodiy, estetik), mukammallik, bilimni oshirish va o'z-o'zini ijodkorlikiy tarbiyalashdan iboratdir.

Darsdan va maktabdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmunini, birinchi navbatda, majmuiy, tizimli tatbiq etishga ko'ra uch xil maqsad uyg'unligi (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlanib boruvichi), psixologik va pedagogik jarayonlar mushtaraqligiga, ta'lim jarayonida jamiyat talablarini e'tiborga olishga, yangicha bilimlarga amal qilish va hakoza qoidalar asosida tarkib topmog'i kerak. Ular asosida o'quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo'nalish belgilanadi.

Bu maqsadga erishish uchun o'quvchilar bilan to'garak, fakultativ, mashg'ulotlarda san'atshunoslik, san'atning ayrim turlarini, Jahon va milliy madaniyatni o'rganishning har xil shakllaridan foydalanish mumkin.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki darsdan va maktabdan tashqari ishlarda amalga oshirilayotgan va yana qayta tiklanayotgan turli dasturlarda shaxs shakllanishiga, ma'naviy kamolotiga, murakkab hayot chorahalarida ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga o'rgatishni shakl-lantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti tarkib topayotgan bir kezda o'quvchilarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda, albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish turlarini belgilab olish darkor. Bolalarda hunar va ijodkorlikga bo'lgan muhabbatni uyg'otish jarayonida ularning ijobiy hislatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarni quyi sinfdan ijodkorlikga yo'naltirib, 9-sinfni tugatganlarida akademik litsey yoki ijodkorlik-hunar kollejlariga yo'llanma berish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni bozor sharoitiga o'rgatishning o'zi ularning halol va fidokorona mehnat tufayli foyda olish haqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Bolalarni jamoa bo'lib, hamkorlikdagi mehnat natijasida mahsulot soni va xizmat turlarini oshirish mumkinligiga ishonitirish muhim hisoblanadi. Bolalarning qurilish maydonchalari, yordamchi yig'im-terim brigadalari saflarida hunarmandchilik bilan shug'ullanishlari, usta-shogird maktablariga qatnashib xalq amaliy san'atida, bemorlarga yordam ko'rsatish va nafaqaxo'rlarga xizmat ko'rsatish bo'limlaridagi, hovlilarni va ko'cha-ko'ylarni tartibga keltirishdagi, sanoat korxonalarida, hisoblash markazlari, shifoxonalar va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ishlari alohida qo'llab-quvvatlab boriladi. Ular bu ishlarning barchasidan ma'naviy foyda topish malakasini oshirib boradilar zero, bozor munosabatlari bugungi kunda Jahonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlan-tirib turadigan birdan-bir vositadir. Bu munosabatlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga, texnik va iqtisodiy bilimga, malakali mutaxassislarga, ishni to'g'ri tashkil qilishga asoslaniladi. O'quvchi bozor qarama-qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganib boradi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodkorlik-hunarga yo'naltirishda iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash muhim ahamiyat ijodkorlik etadi. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir. har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos psixo-logik jihatlari va fazilatlari hisobga olish darkor.

Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo, maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostik tajribalardan unumli foydalanishlari zarur. Bunda «Respublika Iste'dod Markazi» xodimlari bilan

hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljallangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan ishlab chiqish lozim. Bu sohada «Ulug'bek», «Oltin meros», «Iste'dod» jamg'armalari bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirishi imkonini yaratadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dodli va iqtidorli to'garak a'zolari alohida rag'batlantirildi, ularga mukammallik uchun sharoit yaratildi, ularning ijobiy qiziqishlari, rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish namunali amalga oshirildi.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, Respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim-tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga kuyish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni respublikamiz mintahalarining hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o'quv rejalari va o'quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik hamda moliyaviy jihatdan to'liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruqiy zarbalardan asrash yo'llarini aniqlash, ruqan yordam ko'rsatish, qattiq qayajonlanish holatlarini o'rganish ularning ijodiy qobiliyatlari rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxassislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi to'zilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kengash ijodkorlik-hunarga yo'naltirish ishlarini muvofiq-lashtirib, yo'naltirib, tashkil qilib boradi.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning ijodkorlik-hunarga yo'naltirish ishini tashkil qilishda turlicha o'quv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni ijodkorlik-hunarga yo'naltirish uslubiyati, psixologik, pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish maqsadida maxsus o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishda eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtiroklari tavsiya etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy, ijodkorlikiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyatini amalga oshirish; akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish zarur.

Mazkur vazifalarni hal qilishda mahalla faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mahallaning ustunligi shundaki, ko'p yillar davomida birga yashagan kishilar yagona do'st oilaga uyushganlar. Ular bir-birlarini, har bir oila va har bir bolani, ularning ota-onalarini va imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. Mahallada an'anaviy tarbiyaning sharqona uslublari tarkib topgan. Masalan, hashar usuli bilan ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, og'ir daqiqalarda bir-birlariga yordam berishadi. Bu esa so'zsiz katta tarbiyaviy ahamiyatga ega va ahloqiylikni rivojlantirishga, jamiyatning boshlang'ich negizi sifatida oilani mustaqkamlashga yordam beradi.

Ta'lim muassasalari negizida pedagogik, ijodkorlikiy, huquqiy, psi-xologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar o'quvi» faoliyatini tashkil etish,

bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga kuyish muhim ahamiyatga ega.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorlikiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi asosiy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- ijodkorlikiy tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar ishlab chiqish;
- ijodkorlikiy tarbiyani zamon talablari asosida tashkil etadigan pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- ijodkorlikiy tarbiya vazifalarni hal qilish uchun respublikaning barcha ilmiy kuchlari: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, oliy o'quv yurtlari, fan, tarmoq, davlat va nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-pedagog bo'limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Darsdan va maktabdan tashqari ijodkorligi tarbiya mezonini amalga oshirishni davriy tahlil qilish rejali, ayrim ilmiy yoki pedagogik jamoalarning taqliflari bo'yicha o'tkazilishi ham mumkin. Lekin har qanday vaziyatda tahlil qilishda ham ilmiy, ham amaliyotchi xodimlarning ishtirok etishi shart ekanligini unutmaslik kerak. Davriy ilmiy tahlil asosida tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilash va tuzatishga da'vat etilgan bo'lsa, uning kundalik va doimiy tashkilotlari qatori amaliyotchi pedagoglarni ham keng jalb qilish lozim. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining uslubiy ishilariga alohida e'tibor berish kerak. Ular bolalar va o'smirlarni tarbiyalash bilan shug'ullanayotgan xodimlarning barcha toifalarini uslubiy yordam bilan ta'minlashlari, ushbu ishlarning ilg'or tajribasi asosida to'garaklar va uyushmalar, maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining dasturlarini ishlab chiqadilar hamda ularni takomillashtiradilar.

Umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchi va to'garak rahbariga muhtoj.

Shaxs sifatida bunday pedagog xodimlarning o'zi har tomonlama rivojlangan, bilimdon, keng ko'lamdagi umummadaniy va ijodkorlikkor ma'lumoti, ko'nikma va malakasiga hamda o'zligini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

II.2. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda Naqshbandiya ta'limotidan foydalanish orqali o'quvchilarni mehnat va kasbga yo'naltirish shakllari.

Har kanday jamiyat o'z a'zolari tomonidan axloqiy diniy huquqiy talablarni bajarishini nazorat qiladi. Bunda shaxs o'z oldiga qo'yilgan talablarni anglagan holda o'zida ijtimoiy nazariy talablari bilan birikib ketuvchi va shaxsning to'liq ijtimoiylashuvini ta'minlovchi ko'nikmalarni shakllantiradi, ammo ijtimoiy nazariy hamisha ham yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Buning boisi alohida individlar taqiqning hamma qabul qilgan shakl va tizimlariga ko'pincha salbiy munosabatda bo'ladi. Bu ob'ektiv sabablar ham shaxsning sub'ektiv sifatleri bilan oldindan belgilangan holdir. Ijtimoiy nazariy shaxs ijtimoiylashuvining boshqa yo'nalishlari, masalan ijtimoiy tajriba muomalaga ham ta'sir qiladi. Insonni o'z-o'zini ijtimoiy talablariga muvofiq nazorat qilishda din muhim rol o'ynaydi. Iloxiy nazariyalar, jumladan islom dini ham xalq ongiga axloq orqali singdiriladi. Insonga ta'sir ko'rsatishning boshqa usullariga qaraganda ilohiy ta'sir insonning nozik hislarini, ruhi orqali amalga oshirilishi bilan ham kuchli hisoblanadi. Bundan dinning inson hayotining mazmuni, uning hozirgi real dunyodagi holati, yurish turishining oqibati jannat, boqiy dunyo uchun zamin hozirlashi kabi talablari kishilarni ruhan o'ylantiradi.

Bu xususiyatlar tasavvur ta'limotida va uning ko'rinishlaridan biri bo'lgan Naqshbandiya tariqatiga ham mos xususiyatdir. Markaziy Osiyodagi musulmonchilik dini tarixidan ma'lumki Movorounnaxr va Xurosonda yashagan axli ilmlar «ulumu mutodavala» dunyoviy ilmlarini egallab bo'lganlaridan so'ng odatda ilmu hol (avliyolik ilmi) ni egallashga ko'l urishar, birorta murshidga kul berib murid bo'lar va suluxga kirar edilar. XIV asrdan keyin markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan suluk Xo'ja Bahouddin Muhammad asos solgan Naqshbandiya suluki edi. Bizning davrimizda ham nomlari mashhur bo'lgan Xo'ja Axro Vali, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham Naqshbandiya sulukiga mansub bo'lganlar. A.Jomiy «Nafoxiy ul-uns», A.Navoiy «Nasoyi ul-muxabbat»

asarlarida Bahouddin Naqshbandga maxsus bob bag'ishlaganlar. A.Navoiy bir kator dostonlari va g'azallarida ham u kishini ta'riflab ajoyib misralar yozgan.

Tariqat shayxlarining fikr va axvollari safar yoki muhimlik borasida har xil bo'lgan. Ulardan ba'zilar avvalda safar qilishadi va oxirda muhim bo'lishadi ba'zilar esa avvalda muhim bo'lib oxirda safar qiladilar. Yana ba'zilar borki avvalda ham oxirda ham safar qilaveradilar va muhim turmaydilar. Bu to'rt toifaga safar qilmoq va muhim turmoqda o'zlariga xos sodiq niyat va to'g'ri maqsad belgilovchi hisoblanadi.

Bu esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning qo'y bokib tijorat qilib yashagan sunnatlariga mos kelar edi. Zotan Rasulloxning o'zlari: «Haqiqiy musulmon bu dunyoning u dunyoni unutmaydi, u dunyoni deb bu dunyosini ko'ldan bermaydi» degan edilar shuning uchun naqshbandiya tariqatiga e'tiqod kiluvchilar o'z oilasini obod qilish fuqarolik mas'uliyatlarini ado etish, tijorat ya'ni shaxsiy va ijtimoiy burchlarini bajarishni ham o'zlari uchun farz hisoblaganlar. Mazkur sulukdagi «Dastbakoru dilba-yor» shiorlarini oladigan bo'lsak bunda olloxga toat ibodat diniy yoki tariqat talablarini bajarish asosida harakat, ishlash mehnat qilish yotadi. O'z navbatida mehnat qilish halol rizq topish toat ibodatni haqiqiyligini pokligi belgilagan qolaversa mehnatning o'zi ham toat ibodat darajasiga ko'tarilgan. Ammo mehnat toat ibodatga buysundirilgan. Mehnat orqali inson o'zini o'z qadr qimmatini, o'z shaxsiy mehnat imkoniyatlarini aniqlab, uni ibodatga bo'ysundirgan. Ibodat va mehnat o'zaro chambarchas bog'liq, ammo uning asosida har bir kishi o'zining bandalik burchini ado etish, halol mehnat qilish va o'zining ollox oldidagi bandalik mas'uliyatini unutmasligi muhim hisoblangan. «Dast ba kor» (inson faoliyatini mehnatga yugrilganligi) ni avval qo'yilish «Dilba yor» (qalb olloxga yo'g'rilgan hisoblangan) ning keyin ikkinchi jumla sifatida qo'yilishida ham ma'lumantiq, mantiq qat'iylik bor. Xazrati Naqshband ta'limotida «Dast bakor» birinchi o'ringa qo'yiladi. Inson mehnati uning yashashi moddiy extiyoji uchun muhim bo'lib, «Dil ba yor» - qalb xudoga yo'g'rilgani poklik e'tiqod uchun. Jumladan mehnat ham halol bo'lishi lozimligi o'ktiriladi. Bunda biz Naqshbandiya tariqatining haqiqiy mohiyatini, ya'ni ollox

ta'limotini qalblarga naqsh kabi singdirish Amaliy va nazariy yoki zoxiriy va botiniyda o'z ifodasini topganligini, naqshbandchilik bir shakl yoki xobik emas mohiyat va mazmun jihatidan tariqatga mosligini ko'ramiz. Amaliy harakat, inson faoliyatining tashqi zoxiriy tomoni bilan ollox ilmini qalban qabul qilish dialektik bir biriga uyg'unlashadi.

Shaxsning ibodat bilan mashg'ul bo'lib shaxsiy va ijtimoiy hayotdan ajralib qolib, insoniy mahdudlikka (ajralib qolish) berilmasligi, mehnat va ibodat uyg'unligi Naqshbandiya tariqati ijtimoiy mohiyati tez tarqalishiga turli xalq va elatlarning o'ziga jalb qilishiga asosiy sabablardan biri desak xato bo'lmas.

Xazrati Bahouddin Naqshband o'z ko'l imkoniyatlari aql-zakovat hamda avliyolik quvvatlarini insonlarni ma'naviy va ruhiy poklanishga xalqqa zulm va jafo qilayotganlarni insofga chaqirin, insonlarni ilmu ma'rifatga jalb qilish kabi payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. sunnatlariga to'liq amal qilishga, islom dinini bid'atlardan tozalashga bag'ishlaganlar. Shundan bo'lsa kerak xalq ichida u kishishni «Bahouddin Balogardon» deb e'zozlanishlari xalq g'ami bilan yashab uni yashashi mehnat qilishi o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaat qurishga da'vat qilganlari uchun xalqimiz asrlar o'sha e'zozlab obro'-e'tibor, izzat-ikrom va ziyorat qilib kelmoqda. Mehnat kishilari bilan muhim ishni boshlash yoki og'ir yukni ko'targanda hozir ham «Xazrati Bahouddin Balogardon» -deb u kishi ruhidan madad so'raydilar.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.

Naqshbandiya tariqati insonning noyob ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan foydalanish orqali uning o'z-o'zini tarbiyalashni o'zini kuzatish, taxlil qilish, nazariy va boshkarishga erishishning o'ziga xos ruhiy-irfoniy texnologiyasi hisoblanadi. Buning oqibatida inson tabiatiga poklik, ezgulik hislatlarni holi bo'lib, ezgu halol, adolatli xulq-atvorni shakllantirish ruhan va qalban pokiza bo'lib, haq yo'lga Islom diniy farzlarini ijro etish balki birga Alloxga yaqinlashishning yana bir muhim amalga oshirish vositasi bo'lib hisoblanadi. Xufiya zikrining makko mazmuni tariqat rashxalari bilan uzviy vositasi va uni maqsadiy amalga oshirishga xizmat qiladi.

Savol tug'ilish mumkin XXI asr axborot va yangi texnologiyalar sharoitida jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining hamma sohalari va shunga muvofiq tezlashuvi tezlar insonga ta'sir qiluvchi informatsion vositalarining kuchaygan sharoitida insonni Naqshbandiya tariqati orqali tarbiyalash mumkinmi? Bu savolga avvaldan javob berib, "ha mumkin" deyishning bir necha jihati bor.

Birinchidan, mamlakatimizning bozor munosabatlari qamrab olib, kishilar munosabatlarida moddiy narsalarning qadr-qimmati salmog'ining oshishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida yangi iqtisodiy munosabatlarda kishilar o'rtasidagi o'zaro orqali, beg'arazlikni kuchaytirish bilan birga g'araz kabi hissiyotlarini kuchayishi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan milliy mustaqillik yoshlarda milliy ong, g'urur, ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni taqazo qiladi. Chunki milliylik istiqlol mafkurasining poydkvori, mumtoz ma'naviy axloqiy merosimiz umumbashariy qadriyatlar bilan ibrga mustaqillikni mustahkamlashning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, hozirgi zamon kishisi tezlik va o'ta kuchli axborot oqimida faoliyat ko'rsatishi uni ruhiy, jismoniy jihatdan toliqishga, odatlangan qadriyatlar o'zgarishi kayfiyatiga salbiy ta'sir qilib, tasalliga muxtojligini oshiradi. Hozirgi zamon fani insonni bu holatlardan chiqarish uchun turli ijtimoiy - psixologik, pedagogik mashqlar ishlab ishlab chiqdi.

Bulargina emas, bir qancha insonni o'rganuvchi psixodiagnostik, psixonarsistiya pedagogik tashhis kabi fanlar shakllanadi. Ammo tajriba ko'rsatadiki, bularning hammasi ham xalqimiz milliy ruxini to'la aks etmaydi. Xalqimiz mentaligsti va uning ma'naviy olamining dinga moyilligi milliy harakterdagi uning ruhiga mos ta'sir ko'rsatuvchi treninglardan foydalanishi necha asrlardan beri ko'pgina xalqlar e'tiqod qilib kelayotgan Naqshbandiya tariqati milliyligi, maxalliligi va har qanday kishining kundalik hayot tariziga mosligi bilan kishilarga milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda muhim qurol bo'lla oladi.

Xazrat Bahouddin Naqshband ta'limotining mohiyatiga chuqur tushunish, uning shaxsga ta'sir qilishining ma'naviy-axloqiy, ruhiy jihatlaridan o'rinli foydalanish, pedagogika fanini yangi ta'sirchan usullar bilan boyishiga olib keladi. Bunda masalaning nozik va murakkab tomoni mazkur tariqat mohiyati va insonga ta'sir qilish texnologiyasini anglash hisoblanadi. Xazrat Bahouddin Naqshband tariqatida bu texnologiya o'ta oddiy 11 ta rashka, va nixoyatda ular mazmuni, mohiyatini insonga ta'sir qilish imkoniyatlarini iloxiy ilm bilan bog'langanligi hozirgi zamon kishisi uchun murakkab hisoblanadi. Bahouddin Naqshband ilohiy ilmda avliyolik, valiylik maqomatiga erishganliklari uchun, laduniy ilm orqali insonning anatomik-fiziologik tuzilishini hamda ruhiy iloxiy, ma'naviy-axloqiy jihatlarini o'ta chuqur anglagan va uni o'zgartirishning texnologiyasini ishlab chiqqan. Mazkur texnologiyani hozirgi zamon kishisining tushunishini tenglashtiradigan yana bir jihati Quro'ni Karim va Xadisi Shariflarni hamda tasavvuf, uning irmoqlari hisoblangan tariqatlardan

xabardor bo'lishi keraqligidir. Shuning uchun diniy ulamolari pedagog va psixolog, ijtimoiy fanlar namoyondalari bilan tushunarli bayon qilish usullarini ishlab chikishlari dolzarb muammo hisoblanadi.

Naqshbandiya tariqatida hozirgi zamon kishisida go'zal axloqni tarbiya qilish, haq yo'liga chinakam halollikka, pokiza rostgo'ylik, mexr-shavkat odamiylik va vatanparvarlik ruxi bilan sug'orilgan sufiylik ta'minotini singdirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlaridan foydalanilgan. Pedagogik muhitdan insonning nozik ruhiy imkoniyatidan foydalanish orqali uning o'z-o'zini tarbiyala, o'zini nazorat qilish, ruhiy va jismoniy boshqarish mexanizmlarini ishga solish tufayli unda ezgu sifatlarni singdirish tizimi ishlab chiqilgan. Insondagi salbiy hislatlardan holi bo'lish, ezgu halol, adolatli xulq-atvorni tarbiyalashda rashxalar va ularni xufiya zikr orqali amalga oshirish insonni haq yo'liga intilishi orqali o'zini poklash tizimi hisoblanadi.

Hozirda Buxoro viloyat bosh ilm xatibi Buxorodagi Xazrati Naqshband ziyoratgoh majmuasi imom xatibi xoji Abdulgofur Buxoriy yozadilar: «Aslida tasavvufning maqsadi ham shu inson kamoloti, kishi ruhiy va ma'naviy jihatidan poklash va komil insonni tarbiyalash». Komil inson esa: «Yuksak ongli va ma'naviyatli mustaqil fikrlaydigan, jismonan va ruhan poklangan» kishidir. Shu bilan Xoji insonni ruhiy va axloqiy irfoniy tarbiyalashning «muborak rashxalar» deb ularga inson baho beradilar.

Naqshbandiya tariqatidagi rashxalar insonni mazkur ta'limotini egallash bosqichidagi sifatida haqni bilish sari yetaklab, bir bosqichda egallangan fazilatlar ikkinchi qoidada shakllanishi lozim hislatlarni taqazo qiladigan ierarxik to'zlash kasb etgan. Bir bosqichda o'zlashtirilgan sifatlar va ularning mexanizmi ikkinchi bosqichda mustaxkamlashib insonni haq taologa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Uning ichki ruhiy - ma'naviy olami imkoniyatlarini ochib, oddiydan murakkabiga «Men»dan «Biz»ga usib o'tishjarayonida «Uzlik»ni yo'qotish evaziga yuksakligini ta'minlaydi. Bunda inson kamoloti o'z ichki ruhiy

imkoniyatini namoyon etish, uni ro'yobga chiqarish orqali o'zini o'zi tarbiyalab, o'zini o'zi takomillashtiradi.

Naqshband xazratlari pedagogika fani ancha keyin ochgan o'z-o'zini tarbiyalash usullari hisoblangan o'zini kuzatish, tashkil etish, o'ziga baho berish ya'ni o'zini bilish orqali o'zini anglash mexanizmlari o'ziga taslli va uzluksiz harakat toat ibodatlar orqali amalga oshirishni o'ta chuqur bilgan va qo'llaganlar bunda mutafakkirning insonni ijobiy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos ilmiy - irfoniy, amaliy qulay usullarini kashf qilganligini bashoratini qurish mumkin. Insonni ijobiy xulq jihatidan tarbiyalash tashqarisidan emas, balki o'zining ichki intilishi sifatida amalga oshirilishi mumkinligini isbot qilganlar.

Naqshbandiya tariqatida ta'lim tarbiyaning o'ziga xos amalga oshirish usullari rashxalar, zikr, suhbat, avlodlardir. Ular ham tariqatni o'rganish va muridni uning talablari asosida tarbiyalash, nafsini tiyib, qalbni poklab Haqqa yetishish vositalari hamdir. Xazrati Naqshband ustozlaridan qabul qilib olgan «safar dar vatan» (vatan ichra safar) «xush dar dam» (nafasda xushyorlik), «nazar dar qadam» (nazarni kadamdan uzmaslik), «xilvat dar anshuman»

qoidalarini hayotga tadbiq etib ularni to'ldirib, yaxlit o'ziga xos tasavvufiy

ta'lim tarbiya tizimini asosladi. Inson odamlar orasida ham o'zini botiniy xilvatini ta'minlab, muntazam o'z xatti-harakatini nazorat qilib turishi shart.

«Nazar dar kadam» kishining doimo o'z faoliyatini taxlil qilishi qilayotgan ishining o'z faoliyatini taxlil qilishi, qilayotgan ishining yaxshilash va yomonlik jixatidan sunnatga mos kelishini tekshirib turishi va qadamni yomon joylarga qo'ymaslikka harakat qilishi lozim. O'rinsiz, nomaqbul hayotiy extiyojdan kelib chikmagan sangib yurishlar kishiga zarar keltiradi. Kishi o'zi bilmagani

holda

nomakbul ishlar ishtirokchisiga aylanadi. Shuning uchun xalqda yurgan oyoq

Badbo'y is keltiradi, jim to'rgan oyok gul keltiradi., degan naql bor. Shuningdek tariqatning «Yodgard» (yodlash), «bozgasht» (takrorlash), «yoddasht» (eslash, esdalik) talablari ham xufiya zikrga moslashtirilgan. Bu rashxalar kadamba kadam insonni o'zi o'zini bilish bosqichlari sifatida uni axloqiy pokligini ta'minlagan bilan birga gnoseologik mohiyatga ham ega. Garchi ko'pgina

adabiyotlarda ular axloqiy poklanish, ruhiy tozalanish deb talqin kilinsada o'z navbatida insonni o'zini bilib Alloxni tanish, uning vasliga yetish vositasi hamdir. Bularni Xoji Abdulgafur Razoq Buxoriy muborak rashxalar deb ta'riflagan. Ularning muboraqligiga inson kalbini poklovchi va o'zini bilishining kuchli ruhiy-irfoniy yo'li ekanligidir. Insonni ruhiy holatini o'zgartirib jismini illatlardan xoli qilib o'zini bilish orqali oliy maqsadga erishish yo'li. Bu jihatdan ular ham axloqiy-irfoniy ham gnoseologik ya'ni insonni o'z tabiatini bilish vositasidir.

Rashxalar tomchi-tomchi ya'ni asta sekin insonni tariqat girdobiga tortib, uni qalbini tomchilab tozalashdan sel kabi buyuk o'zgartiruvchi pulga aylanadi. Bu yerda biz ularning yana bir funksiyasini inson tabiatiga irfoniy ta'sir kuchini ko'ramiz. Demak, ular axloqiy irfoniy, gnoseologik vazifalarni amalga oshiradi.

Biz tadqiqitimizning maqsad va vazifalari, ilmiy farazi va metodlaridan kelib chiqib ilmiy tadqiqitda qabul qilingan tarixiy va mantiqiylik hamda dialektikaning umumiydan xususiylikka qarab borish tamoyillari asosida ish ko'rdik. Mazkur tamoyillarni amalga oshirish ishda dastlab umumnazariy, g'oyaviy asosni aniqlash va undagi texnologiyani aniqlash orqali amalga oshirildi. Jumladan, avval biz mumtoz merosimiz

nazariy-g'oyaviy asosi hisoblangan Qur'oni va Xadislar va ular asosida yozilgan asarlarning e'tiqodiy asoslarini imyon, ixlos, ishonch e'tiqod masalalarini tadqiq qildik. Chunki «Chor kitob», «Avesto», Qur'on, Payg'ambar sunnatlaridan imyon, ezgulik masalalariga to'xtaldik. So'ngra bular asosida yuzaga kelgan tariqat Naqshbandiya ta'limoti va buyuk zotlar Alisher Navoiy, «Qobusnoma» kabi asarlarda imyon e'tiqod muammolarini yoritdik. Iymon e'tiqod kishilarni sexrlovchi mu'jiza bo'lishi bilan birga, g'oya e'tiqodni singdirish vositalari So'z bilan ta'sir etish texnologiyasining nozik jihatlarini asosli misollarda yoritib, ilmiy ishimiz umumpoydevorini yaratdik sung ish poydevor-nazariy-g'oyaviy asosga tayanib, mumtoz merosimizda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish texnologiyalarini izlashga va asoslashga kirishdik. Mumtoz merosimizda ta'lim tarbiyaning tamal toshi halollik, poklik, axloqiy barkamollik mehnat qilish halol yashash o'z-o'zini takomillashtirish ekanligiga e'tiqod keltirdik.

Milliy merosimizning g'oyaviy-texnologik asoslarini tadqiq qilish Bahouddin Naqshband tariqatining ijtimoiy mohiyati-insonlar uchun foydali, ularni oxangrabo kabi o'ziga tortuvchi siru asrorini aniqlash imkoniyatini berdi. Mazkur tariqatning oxangrabolik xofizasi uning mazmun-mohiyati oddiy kishilarning yashash tarziga yaqinlashish, ularni halol yashab, mehnat bilan rizq-ro'zisini topib Allox oldida bandalik burchini ado etish, ya'ni bandalik majburiyati toat-ibodatni kundalik insoniy burch bilan uyg'un olib borishdaligiga ishonch hosil qildik. Naqshbandiya tariqatining insoniy va ijtimoiy mohiyatini tadqiq qilish uning boshqa mavjud ko'pgina tariqatlardan farzi-o'ziga mosligini o'ziga xos psixologiyasini ochish imkoniyatini berdi. Shulardan so'ng tanlagan tamoyilimiz-umumiyydan xususiyyga borish asosida Naqshbandiya tariqatini o'rgatish va o'rganish yoki ustoz shogird munosabatlari texnologiyaini tadqiq qildik. Bunda muridni tariqatga o'rgatishning umumiy g'oyaviy asoslari yoxud pir murid munosabatlarining

asoslari tahlil qilindi. Tariqatni o'rganishni umumiy asoslari esa, Naqshbandiya tariqati irfoniy-iloxy asoslari hisoblangan rashxalarning insonga ta'sir qilish texnologiyasi tadqiq qilindi.

Rashxalar umumiy mohiyat-mazmunini belgilasa, ularni bevosita murid amlaga oshirishi, ya'ni o'z qalbiga naqsh qilish vositalari hisoblangan zikr, suhbat, zokiriy va botiniy ta'sir ko'rsatish usullari tadqiq qilindi. Shular asosida Naqshbandiya tariqati pirlari va shaxsan shayx Bahouddin Naqshband shaxs to'zilishi, mohiyati, uning tashqi va ichki imkoniyatlarini bilish asosida unga ta'sir ko'rsatish, uni xallol xush xulq, pokiza axloq ruhida tarbiyalashda o'z zamonasidan bir necha asr oldinni ko'ra olgan valiy jonligiga ishonch xosil qildik va e'tiqod keltirdik. Har kanday ta'limot va tariqat ma'lum ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy zaminda paydo bo'ladi. Jumladan, Naqshbandiya tariqati ham Qur'oni Karim va Muhammad Payg'ambar s.a.v. sunnatlari poydevoriga qurilgan.

Tariqatga kiruvchi soliq avval musulmonchilik asoslari, har bir banda ijro etishi zarur bo'lgan farz va sunnatlarni bekami-kust bajo keltirishi zarur. Musulmonchilik asoslarini ijro etishni o'zi har bir kishi uchun oson emas. Islomning beshta ruknlari: iymon, namoz, Ro'za, zakot va xaj insondan sabot-qunt, iroda, muntazam intizomni talab qiladi. Shu beshta rukndan bittasi namozni olaylik, uni 5 vaqt ijro etish uchun taxorat olish, har birini o'z vaqtida bajarish kishidan kuch va iroda talab qiladi. Shularni mukammal egallagan odam tariqatga kira olishi mumkin. Ammo tariqatga yo'l olgan odam uchun bular yetarli emas. Tariqat dinni yuksak tuyg'ular: mexr-oqibat, ishq, muxabbat, all ox yetishish texnologiyasi bilan boyitdi. Tariqatdagi insonni o'ziga tortuvchi qator omillar dinda yo'q, desa ham bo'ladi. Tariqat ham dinni, ham insonni yuksak tuyg'ular bilan boyitadi. Shaxsni tor qobig'idan chiqishiga, ma'naviy-axloqiy, ishkqiy emansinatsiyasi (ozodlik)ga olib keladi. Shu jihatlari bilan kishilarni avval dinga va so'ngra tariqatga jalb

qiluvchi vosita hisoblanib, dinni omma orasiga keng tarqalishiga, ya'ni sekulyarizatsiyasiga sabab bo'ladi. O'z navbatida tariqat hozirgi zamon kishisi uchun o'zini tarbiyalashning eng qulay yo'li hisoblanadi.

Tariqat vositasida kishilarni o'z-o'zini tarbiyalash masalasini qo'yar ekanmiz uni qanday qachon va nimalar vositasida amalga oshirish, muammosi ko'ndalang bo'lib qoladi?...

Fikrimizcha, bu kelajakdagi ishlar mazmunini tashkail etadi. Biz mazkur tariqatimizda zamona ruhidan kelib chiqib, Naqshbandiya tariqatining insonga sexrli ta'sir qilish sirlari yoki texnologiyasini baxoli qudrat tadqiq qildik. Olib borilgan tadqiqit quyidagi ilmiy xulosa va tavsiyalar qilishga asos bulla oladi.

Mumtoz merosimiz, jumladan Naqshbandiya tariqatining ham g'oyaviy asosi Qur'on va Xadislarda bayon qilingan iymon-e'tiqod vash u asosdagi ezgulik, kamollik, poklik, halol mehnat qilish tufayli halol rizq topish bo'lib hisoblanadi.

Kishilarni ezgulik, imon, e'tiqod ruhida tarbiyalashda ta'sirchan texnologiya so'z san'ati hisoblanadi. So'z (nutq) insonga berilgan ilohiy in'om sifatida shaxsni tarbiyalashning eng kuchli vositasi, kishilarni bir-birini tushunishi, qadriyatlarni ularga singdirish vositasi hamdir. Bu muhim vositadan Naqshbandiya tariqati pirlari ham moxirona foydalaganlar. Xoja Ali Rometaniy me'yorida so'zlash axloqli kishi fazilati ekanini ta'kidlagan edi.

Mumtoz merosimizda ta'lim-tarbiyani tashkil qilishining texnologik asosi g'oyaviylik, uni asosini esa hamollik, axloqiy tashkil etadi. Milliy merosimizda, jumladan, tasavvufda insonni tarbiyalashning asosiy shaqli o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bunda tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti ham insonining o'zi bo'lib, imom e'tiqodi asosida mutasil o'zini takomillashtiradi. Naqshbandiya tariqati insonni o'z o'zini uning rashxa va usullaridan

foydalanib, yuksak takomillashtirishning amaliy-nazorat asosidir. Shu bilan birga tariqat ruknlarini bashara turib halol yashash, mehnat qilish va fuqarolik majburiyatlarini bajarishga undaydi. Uning ijtimoiy mohiyati insonni moddiy dunyoda yashashini osonlashtirib, ma'naviy-axloqiy poklikka erishib, Allox bilan yaqinlashish. Dunyo azob-iztiroblarini toat-ibodat bilan yengish. Naqshbandiya tariqati markazida inson turadi. Uning kamolotini ta'minlovchi «vird» lar, «avrad» lar va rashxalar yotadi. Ularni algoritmik takrorlash oqibatida bosqichma-bosqich muridning insonni fazilatlari go'zallashib, tariqat asoslarini egallaydi. Tariqat usul va vositalaridan urinli va ta'sirli foydalanishda pirning o'rni beqiyosdir. Pir o'zining shaxsiy-axloqiy fazilatlari bilan muridga ta'sir ko'rsatish bilan birga zikr, suhbat va avliyolik karomatlaridan foydalanadi.

Zikr va suhbat shogirdga tariqatni o'rgantishining ta'sirchan texnologiyasi sifatida, uning mohiyatini o'rganishni kunikma va malakalar darajasiga yetkazib, avtomatlashib ong osti , ya'ni o'z-o'zidan zikrni bajarishga asos bo'ladi. Naqshbandiya tariqatini muridga o'rgatishda uni zoxiriy va botiniy tayyorlash yuqori bosqich bo'lib, muridni pir darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi. Zoxiriy va botiniy tarbiyalashning o'zining bosqich va vositalari mavjud bo'lib, ular muridni zoxiriy va botiniy poklashga asosiy vosita hisoblanadi. Naqshbandiya tariqati pirlari insonni tarbiyalashni o'sha davr uchun fanda ma'lum bulmagan, hozirgi zamon fani ochgan pedagogik, psixologik treninglar, tafakkurning meditatsiya shakllarini tariqat mazmuni, maqsadi, shakliga vobasta rashka, zikr, suhbat pir raxnamoligiga asoslangan emperik, ilmiy-amaliy bilimlar va laduniy ilm asosida amalga oshirganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ta'lim to'g'risida qonun «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli to'plamda.-Toshkent, 1998
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - Toshkent 1998
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.
-Toshkent.: Yangi asr avlodi. - 2001
4. Karimov I. Istiqlol va ma'naviyat-Toshkent: O'zbekiston,
5. Karimov I. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-
Toshkent.1997
6. Karmov I. Ollox qalbimizda, yuragimizda.-Toshkent, 1999
7. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.
-Toshkent.: Ma'naviyat, 2008
8. Abul Muxsin Muhammad Bokir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon - Toshkent.: Yozuvchi, 1993
9. Abu Iso Muhammad At-Termiziy. Sunai Termiziy (Xadis tuplami). 1-jild-Toshkent.: Adolat, 1999
10. Al-Buxoriy, Al-Jomiy as-Saxix (Ishonarli to'plash. 1-jild. -
Toshkent) 1991.
11. Alisher Navoiy Nasoyim ul-muxabbat Asarlar to'plami 17-tom -
Toshkent,: Fan, 2001
12. Bahouddin Naqshband. Avrod (avrodi boxoiya) G.Navro'zova tarjimasi, -
Buxoro, 2000
13. Buxoriy, Sadriddin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. Buxoro,
2006
14. Buxoriy Xoji Abdulg'afur Razoq, tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya
ta'limoti asosidir) Toshkent.: Movorounnaxr, 2003
15. Voxidov R. Lug'at va hadislarda iymon talqini Pedagogik maxorat,
2001, 1-son

16. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug' Xojaning ibrat va hikmatlari Pedagogik maxorat, 2005, 1-son
17. Durdona Mir Kulol vash oxi Naqshband makomatlari.- Toshkent, 1993
18. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ayrim masalalri, Mas'ul muharrir prof. K.Z Aripov-Buxoro, 1994
19. Zaripov K. Ta'lim-tarbiyada Qur'oni Karim va xadislardan foydalanish-Buxoro.
20. Zaripova G.K. Bahouddin Naqshband ta'limotida tarbiyaning o'ziga xos texnologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari. -Buxoro, 2006
21. Idris Shox . Naqshband tariqati. -Toshkent, 1993
22. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob.- Toshkent, 1996
23. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. -Toshkent, 2004
24. Navruzova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi -Toshkent,: Fan, 2005
25. Hoshimov K., Safo Ochil "O'zbek pedagogikasi antalogiyasi"., Toshkent:, "O'qituvchi", 1995 yil.
26. Xoja Abdulxoliq Gijduvoni. Maqomati Yusuf Hamadoni.- Toshkent, 2003
27. Qur'oni Karim.-Toshkent: Cho'lpon, 1992
28. <http://www.bilimdon.uz>

- 29. <http://www.ziyonet.uz>
- 30. <http://www.edu.uz>
- 31. <http://www.local.uz>
- 32. <http://www.fikr.uz>
- 33. <http://www.pedagog.uz>

MUNDARIJA:

	KIRISH.....	3-11-bet
1-BOB.	O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI....	12-18-bet
1.1.	Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida kasb va mehnatga yo'naltirish shart-sharoitlari.....	12-18-bet
1.2.	Naqshbandiya ta'limotidan boshlang'ich sinflar mehnat ta'limi darslarida foydalanish imkoniyatlari.....	20-31-bet
2-BOB.	O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHDA BAHOUDDIN NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	32-45-bet
2.1.	4-sinf mehnat ta'limi darslarida mehnat va kasbga yo'naltirish usullari.....	32-45-bet
2.2	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda Naqshbandiya ta'limotidan foydalanish orqali o'quvchilarni mehnat va kasbga yo'naltirish shakllari.....	46-48-bet
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	49-57-bet
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	58-60-bet
	ILOVALAR	